

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI  
NAVOIY VILOYAT XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI  
“AMALIY FANLAR VA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIM”  
KAFEDRASI HAMKORLIGIDA**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
“MUSIQIY TA'LIM” KAFEDRASI O'QITUVCHISI**

**Karimov Olimxo'ja Islomovich**

**5-6-7 SINF O'QUVCHILARIDA  
«XOR DIRIJORLIGIDA ODDIY O'LCHOVLARNI  
O'RGANISH USHLUBLARI»  
Metodologik qo'llanma**



**Navoiy-2016**


Ushbu uslbiy tavsiya metodologik qo'llanma sifatida raqobatbardosh qadrlar tayyorlashga qaratilgan bo'lib, uning negizida axborot texnologiyalarining o'rnini katta ahamiyatga ega. Ushbu uslubiy tavsiyani ko'pgina fanlar uchun O'UM (o'quv uslubiy majmua) yaratishda, yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Undan o'quvchilar hamda talabalar foydalanishlari mumkin.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI  
NAVOIY VILOYAT XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI  
“AMALIY FANLAR VA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIM”  
KAFEDRASI HAMKORLIGIDA


BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
“MUSIQIY TA'LIM” KAFEDRASI O'QITUVCHISI

**Karimov Olimxo'ja Islomovich**

**5-6-7 SINF O'QUVCHILARIDA  
«XOR DIRIJORLIGIDA ODDIY O'LCHOVLARNI**



**O'RGANISH USHLUBLARI»**  
Metodologik qo'llanma



Navoiy-2016



Ushbu uslubiy tavsiya metodologik qo'llanma sifatida raqobatbardosh qadrlar tayyorlashga qaratilgan bo'lib, uning negizida axborot texnologiyalarining o'rni katta ahamiyatga ega. Ushbu uslubiy tavsiyani ko'pgina fanlar uchun O'UM (o'quv uslubiy majmua) yaratishda, yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Undan o'quvchilar hamda talabalar foydalanishlari mumkin.

**Tuzuvchi:**

**O.I.Karimov**  
Buxoro davlat universiteti  
"Musiqiy ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

**S.B.Saidiy, NavDPI dotsent v/b.**  
San'atshunoslik fanlari nomzodi.  
O'zbekiston Respublikasi Bastakorlar  
Uyushmasi a'zosi, Kompozitor

**Bahrom Madrimov, dotsent**  
BuxDU, "Musiq" kafedrasida mudiri  
Pedagogika fanlari nomzodi

Ushbu uslubiy tavsiya "Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lim" kafedrasining 2016 yil 5-sonli yig'ilishida muhokama qilindi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

Ushbu uslubiy tavsiya NVXTXQTUMOI 2016 yil 6-sonli ilmiy uslubiy kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi.

Navoiy-2016

## KIRISH

*Musiq, - jahon ma'naviy siyosatining eng kuchli quroli,  
u ollohning er yuziga yuborilgan mo'jizai olami, tilsiz va tengsizqudratidir !.  
Musiq insonni beshikdan-qabrgacha uzluksiz tarbiyalash,  
Sevish yo nafratlanish, kechirish yo o'ldirishga qodir!!S.Saidiy.*

**Mavzuning dolzarbligi:** Mustaqil O'zbekistonimiz barcha sohalarida ulkan o'zgarishlarni boshidan kechirayotgan hozirgi davr pedagog-xodimlar oldiga o'quvchi-yoshlarni barkamol yetuk shaxs qilib tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni qo'ymoqda. Ayniqsa, ularga milliy mafkura, milliy istiqloq g'oyasi, ma'naviyatni shakllantirish, madaniy meros va umuminsoniy qadriyatlarni tarkib toptirish zarurligi ta'kidlanmoqda.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari darajasida o'quvchi-yoshlarni tarbiyalashda milliy qadriyatlardan keng foydalanish, ma'naviy-ma'rifiy sohada ishlarni takomillashtirish, uzluksiz ta'lim muammolarini hal etish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda.

Unda musiq ta'limining milliy va ilmiy asoslari, mazmuni, tuzilishi va tabaqalanishi, musiq o'qituvchilariga qo'yilgan zamonaviy talablar va o'tiladigan har bir musiq darsining uslubiy tomonlari bayon etilgan.

Ma'lumki, hozirgi vaqtda ta'lim-tarbiya sohasida islohatlar qizg'in olib borilmoqda. Ayniqsa, o'quvchi-yoshlarni ongiga milliy istiqloq g'oyasini singdirishda yangi pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim prinsiplariga asoslangan interfaol usullardan keng foydalanish, ularda vatanparvarlik his-tuyg'ularini, ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish kabi vazifalarga katta e'tibor berilmoqda.

Musiqiy ta'lim yuqorida ta'kidlab o'tilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda eng muhim va samarali omillardan biri hisoblanadi. Musiqachi kasbi o'z yo'lida bir nechta yo'nalishlarga bo'linadi. Masalan, sozanda, xonanda, dirijor, bastakor va boshqalar. Shuni aytish lozimkim, dirijorlik kasbi musiqaga oid bo'lgan barcha yo'nalishlarni mujassamlashtirib o'z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, dirijor ham xonandalik, ham sozandalik yo'nalishlarini mukammal bilishi zarur. Chetdan qaraganda dirijorlik kasbini oson deb o'ylaganlar kata xato qilishadi. Professional musiqachilar bu kasbni egallash uchun dirijorlik maktabini to'liq o'tash lozim deb uqtirishadi.

Metodik qo'llanmamizda 5-6-7 sinf musiqiy ta'lim yo'nalishi va san'at kollejlari talabalariga dirijorlik fanini yana ham asosli va mukammal egallashlari uchun ko'maklashish, shu bilan birga talabalarga kelgusida o'zimizda an'anamizda keng qo'llangan va chet el (Sharq va Yevropa) bir ovozli bastakor va ko'p ovozli kompozitorlarining yirik asarlarini, katta sahna asarlarini dirijorlik qilishda, iqtidorli talabalarni ijodkorlikka qiziqishini ma'nau uyg'otishga asos bo'ladi deb umid qilamiz.

## ANNOTASIYA

*Qadimdan xalq tomoshalari ko'rinishida bo'lib, musiqa va teatr sifatida shakllangan bu san'at doim ijtimoiy hayotga munosabat tusini olgan. Inson turli chegaralarni tuzadi, ammo san'at chegarani bilmaydi: G'arbu Sharqda ham, Shimoli Janubda ham u inson manzaralarini namoyish etaveradi. San'atning mintaqasi ham chegarasizdir.<sup>1</sup> Islom KARIMOV*

Respublikada yaratilgan ko'plab asarlar orasida musiqiy meros bilan xarakterlanadigan, milliy tabiat, milliy o'zlikning mohiyatiga kirib boruvchi asarlar ajralib turadi. O'zbekistonda musiqa san'atining umumiy rivojlanishi bilan birgalikda vokal-xor ijodiyotining faol o'sishi kuzatilmoqda. Bu jarayon xor san'atida turli janrlar va shakllar paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Xor yozuvi va dirijorligining turli uslublarga murojaat qilish, xor sadosi imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishga bo'lgan intilish yuksak badiiy qiymatga ega bo'lgan yangi qiziqarli asarlar tug'ilishiga asos bo'ladi.

Mustaqil O'zbekistonimiz ijtimoiy, syosiy, moddiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi ulkan o'zgarishlar ta'lim-tarbiya ishlari uchun mas'ul pedagog-murabbiylar oldiga yangi-yangi talablarni qo'yimoqda. Ta'limning barcha bosqichlarida o'quv adabiyotlarni yangi avlodini yaratish, o'qitishda fan va texnika yutuqlaridan unumli foydalanish, axborot texnologiyalari, faol uslublarni tadbiq etilgan o'quv-uslubiy majmualar, elektron darsliklar yaratish bilan ta'lim sifat va samaradorligini uzluksiz oshirib borish dolzarbligi, shular jumlasidandir.

Musiqa o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligi ularni musiqa san'atini bir necha mustaqil fanlari bo'yicha mukammal bilim va malakalarga ega bo'lishlarini taqazo etadi. Musiqa darslarining har bir faoliyatini samarali tashkil etish o'qituvchidan bir paytning o'zida musiqa nazariyasi, tarixi, o'qitish metodikasi, musiqa asarlari tahlili, sol'feydjio, dirijorlik, vokal ijrochiligi, cholg'u ijrochiligiga oid bilimlardan o'z o'rnida va unumli foydalanish zaruriyatini vujudga keltiradi. Ayniqsa, darsning "jamoa bo'lib kuylash" faoliyatida o'qituvchi yetuk xor dirijori sifatida o'zini namoyon qila bilishi dars muvoffaqiyatini ta'minlashda asosiy vazifa sanaladi.

Dirijorlik juda murakkab va mas'uliyatli fan bo'lib, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini maktab ta'limiga tayyorlashda o'ziga xos pedagogik yondoshuv, malakaviy mahorat, ta'limni sinf va auditoriyadan tashqari mashg'ulotning uyg'unligida tizimli yo'lga qo'yish, ilg'or tajribalardan foydalangan holda uyushtirish, talabalarda bu fan ularni kelgusi faoliyatida "yetakchi" ahamiyat kasb etib, anglash ko'nikmalarini hosil qilish va fan sirlarini qunt bilan egallab borishlarini talab qiladi.

Movoraunnaxr musiqa san'ati, o'zimizning an'anamizda  $\frac{8}{8}$  ( $3+2+3$ ),  $\frac{10}{8}$  ( $3+2+2+3$ ) taqsimlanishidagi murakkab musiqa ijrochiligi uslublari harbiylarimiz tomonidan janglarda, hujum, tartib-qonunlarida, yurishlarda va tantanalarda keng qo'llanib kelingan.

*"Dirijor ko'rish va eshitish san'atiga ega bo'lmog'i lozim, u yengil va ayni paytda kuchli bo'lishi darkor, u sozlar kompozitsiyasini, ularning tabiati va qamrovini his qilishi, partituraning o'qiy olishi, shular barobarida alohida iste'dod egasi bo'lishi muhim... U yana o'zi va orkestr o'rtasida ko'zga ko'rinmas aloqa o'rnatilishi uchun kerak bo'lgan yana boshqa, deyarli noaniq xususiyatlarga ham ega bo'lishi shart. Agar dirijor orkestrga o'z hissiyotlarini yetkazish xususiyatiga ega bo'lmasa, unda u orkestr ustidan "hukmronlik" qila olmaydi, unga o'z ta'sirini o'tkazishdan mahrum bo'ladi. Bu holda u orkestrning dirijori emas, balki oddiygina "takt uruvchi"ga aylanib qoladi, shunda ham agar umuman taktni to'g'ri belgilash va ajratishni uddalay olsa!" Gektor Berlioz.*

<sup>1</sup> I.A.Karimov. "Ma'naviyat yuksalish yo'lida". Toshkent. O'zbekiston 1998 yil.

Shu bois ham mazkur uslubiy o'quv qo'llanmada oddiy va murakkab o'lchovlarga dirijorlik qilish, ko'nikma va malakalarini hosil qilish yo'lida qo'llaniladigan ish uslublarini yoritib berish ko'zda tutildi. O'quv qo'llanmada keltirilgan mashqlar dirijorlik sxemalarini qo'l harakatida ifodalash "taktlash" va "ko'rsatish" talabalarini har bir o'lchovga dirijorlik qilish qoidalarini puxta egallashlarida qo'l keladi. Mashqlarni tanlashda qo'llarning bir- biriga bog'liq bo'lgan va bo'lmagan harakatlarini bajarish uchun, ya'ni bir qo'lida dirijorlik sxemasini "ko'rsatish", ikkinchi qo'lida ovoz partiyasi ijrosini ko'rsatish u yo bu malakasini hosil qilish nuqtai nazaridan yondoshiladi. Bunday Akademik-konseptual mashqlarga dirijorlik qilishga erishish, talabalarga turli oddiydan boshlab "Nomurakkab va Murakkab" li asarlarga dirijorlik qila olish imkoniyatini yaratadi.

Said Bolta-Zoda SAIDIY  
San'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent,  
O'zbekiston bastakorlar uyushmasi a'zosi, kompozitor



## DIRIJYORLIK TEXNIKASI VA UNING DIRIJYOR UCHUN AHAMIYATI

Xor dirijyorligi fanining asosiy masalalaridan biri – o'rganuvchiga dirijyorlik texnikasini o'rgatishdir. Xo'sh, dirijyorlik texnikasi deganda biz nimani tushunishimiz lozim?

Bu haqda buyuk dirijyor K.B.Ptitsa shunday deydi: "Dirijyorning harakat sistemasini boshqarishi, xor kollektiviga tushunarli bo'lishi, ijroni boshqarishi, unga xarakter berishi dirijyorlik texnikasi deyiladi".

Dirijyorlik texnikasi dirijyorga harakat orqali ijrochilarga va tinglovchilarga musiqa asarining mohiyatini yetkazib berishda yordam beradi. Dirijyor bilan ijrochi jamoa o'rtasidagi birdan-bir aloqa dirijyorlik texnikasidir. U yoki bu asarni ijro etishda dirijyor o'zining dirijyorlik texnikasi bilan ishtirok etadi. Dirijyorlik texnikasini puxta egallagan rahbar so'zsiz, o'zining dirijyorlik harakatlari bilan xorga talabini yetkazishi mumkin. Bu esa har bir xor rahbarining dirijyorlik texnikasini puxta bilishi kerakligidan dalolat beradi.

San'atda erkin bo'lish uchun texnikani puxta bilish zarur. Lekin biz ijrochini uning texnikasiga qarab baholamaymiz, aksincha, uning texnikani qanday qo'llashiga baho beramiz.

Dirijyorlik texnikasi maqsad emas, balki asarning to'liq fikrining bayoni, xorning dirijyorga bo'ysunishidir. Bo'lajak dirijyorga dirijyorlik sirlarini o'rganishda o'qituvchi uning dirijyorlik texnikasiga katta e'tibor berishi kerak, shu bilan birga o'qituvchining umumiy musiqiy rivojlanishini doim nazorat qilishi katta ahamiyatga ega. O'quvchi muloyimlik, egiluvchanlik, qo'llarning erkinligini, bir qator mashqlarni o'zlashtirishi zarur, lekin bunda texnikani birinchi o'rinda qo'yishi mumkin emas, chunki texnika – bu also san'at emas.

Dirijyorlik texnikasini egallash ayniqsa qo'l texnikasini – juda muvakkab va uzoq muddat talab etuvchi jarayon, buni o'quvchilarga birinchi navbatda o'qitirish zarur.

Dirijyorlik texnikasiga o'z ustida tinimsiz ishlash orqalldi erishiladi. Boshlang'ich dirijyor o'zining tabiiy layoqatiga ishonibgina qolmasdan, balki uyda o'z ustida ishlashi, kerakli natijaga erishishi uchun tinimsiz mehnat qilmog'i zarur. Qo'llarni shunday tarbiyalash kerakki, eng sodda mashqlar qiyinchiliksiz, juda oson, yengil, avtomatik ravishda bajarilishi kerak. Ishni iloji boricha osonlashtirish, osonlik va yengillikka erishish uchun dirijyor yuksak mahorat va qunt bilan bir necha yillar mobaynida shug'ullanishi kerak.

Dirijyorlik texnikasini egallashda jismoniy mashqlar ham katta yordam beradi. Dirijyor irodasi kuchli, chidamli, harakatchan, gavda va nafasni to'g'ri boshqara oladigan bo'lishi kerak. Bu haqda Shari Myuni shunday deydi: "Dirijyor harakatlarining sof jismoniy kuch talab qiluvchi mashqlari menga gimnastikaning dirijyor uchun qanchalik zarurligining isboti bo'la olishini ochib berdi. Gimnastika jismonan sog'lom bo'lishga yordam beradi, qo'llarning erkin va yengil harakatini ta'minlaydi. Undan tashqari u Jergiyani tejash va charchoqni yengishga o'rgatadi". Bundan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, maxsus sinf o'qituvchilari o'qituvchilarni jismoniy tarbiya, sport bilan shug'ullanishga jalb qilinislari nur ustiga a'lo nur hisoblanadi.

### Dirijyorlikning texnik vositalari (dirijyorlik apparati)

Dirijyor xorni dirijyorlik apparati yordamida boshqaradi. Bunga qo'llar, bosh (ko'zlar, yuz), gavda (ko'krak, yelkalar), oyoqlar kiradi.

Dirijyorlik apparatini o'rganish gavdani tik saqlashdan boshlanadi. Bu dirijyor uchun katta ahamiyatga ega. Qomatni to'g'ri tutish dirijyor ishini yengillashtiradi, pul't oldida harakatlarning erkinligini ta'minlaydi. Bundan tashqari, gavdani to'g'ri tutish dirijyorning tashqi ko'rinishida ham o'z aksini topadi, bu esa o'z navbatida ommaviy ijroga ijobiy yoki salbiy ta'sir etishi mumkin.

Dirijyorning ko'rinishi estetik did darajasida ijrochilar hamda tinglovchilarga yoqimli, pul't oldida o'zini tutishi esa bir vaqtning o'zida ham shiddatli va jiddiy, ham erkin bo'lishi zarur. Bu xususiyatlarni egallash uchun o'quvchini qomatni tabiiy ravishda erkin tutishga o'rgatish kerak. Gavdani to'g'ri tutishning asosi avvalambor ko'krakning siqilmagan holatini, ya'ni bo'sh holatini ta'minlash hamda yelkalarining erkinligiga erishishdir. Bularning hammasi erkinlik hissinu uyg'otib, o'ziga ishonch hosil qilishda yordam beradi.

### Gavdani tik saqlash

Birinchi darslarda o'qituvchiga qo'yiladigan boshlang'ich maqsadlardan biri, gavdani to'g'ri saqlashni (tutishni) nazorat qilish va bo'lishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etish hisoblanadi. Bunday kamchiliklardan biri bukchaygan holda turish hisoblanadi. Bunda dirijyorning umumiy qiyofasi xomushlik, kayfiyatsizlikni aks ettirganga o'xshab qoladi. Yelkalarining bukchayganligi, ko'krakning cho'kish- charchoqni, holdan toyganlikni bildiradi. Bunday dirijyor xorni ilhomlantimaydi, aksincha, ishtioyqni so'ndiradi. Agarda dirijyor haddan tashqari siqilgan holda tursa, uning nafas olishi qiyinlashib, bu holat dirijyorlik qilishga xalaqit beradi. Bu holat ham xor jamoasiga o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Ular ham erkinliklarni yo'qotishadi. Bunday holda tinglovchilarga dirijyorlik sun'iy, majburiy holda bajarilayotganday bo'lib tuyuladi. Yelkalarni baland ko'tarib dirijyorlik qilishda o'quvchi bo'yin va qo'llarning yuqori qismlarini zo'riqtiradi. Bunday hollarda o'qituvchi yelkalarni bo'sh tutishi, qo'llarning erkinligini, har bir harakatning yelkadan bajarilishini nazorat qilishi va noto'g'ri harakatlarning oldini olishi muhim hisoblanadi. O'rganuvchi asosiy e'tiborni harakatning tirsak bilan emas, balki yelka bilan bajarilishiga sarflashi kerak. Bu harakatning to'g'ri bajarilishiga erishish uchun o'quvchi tomonidan ko'p mashg'ulot, o'qituvchi tomonidan esa juda kuchli nazorat talab qilinadi.

### Oyoqlarning to'g'ri qo'yilishi

Dirijyorning mustahkam tayanchini, gavda tikligini ta'minlaydi. Dirijyorlik vaqtida oyoqlarni uncha keng bo'lmagan holda qo'yish tavsiya etiladi. Bunda chap yoki o'ng oyoqni sal oldinroqqa qo'yish tavsiya etiladi. Bu bilan dirijyor o'ziga mustahkam tayanch hosil qiladi. Agarda oyoqlarni bir-biriga parallel holda juda yaqin qo'ysa mustahkamlik yo'qoladi, gavda ham muvozanatini yo'qotib, dirijyorlikka noqulaylik bo'lib qoladi. Agarda aksincha, oyoqlarning orasi katta ochilsa dirijyorning estetik ko'rinishi buziladi, bunday dirijyorga qarash yoqimsiz bo'lib qoladi. Dirijyorlik vaqtida tizzalarni bukish qat'ian man qilinadi (lekin afsuski, bu holat boshlang'ich dirijyorlarda ko'p kuzatiladi). Bunday o'quvchilarning dirijyorlik paytida oyoqlarni to'g'ri qo'yishi va ijroning oxirigacha shu holatni saqlashini kuzatish, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish o'qituvchidan katta kuch talab qiladi.

O'rganuvchilar tomonidan yo'l qo'yiladigan kamchiliklardan yana biri bu dirijyorlik paytida oyoqlar holatini tez-tez almashtirib turish yoki pul't oldida ortiqcha harakatlar qilishi va aksincha, oyoqlarning umuman qimirlatmasligi. Bunday o'quvchilarga pul't oldida o'zini (ma'lum bir chegarada) erkin tutishni uqtirish lozim. Albatta, ijro vaqtining ma'lum bir qismlarida oyoqlar holatining o'zgartirishi talab qilinishi kerak. Bunday vaqtlarda oyoqlar holati o'zgartirilishiga ruxsat beriladi. Lekin, bu holat ko'p takrorlanmasligi va imkon boricha boshlang'ich holatni egallashga harakat qilish dirijyor uchun muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Oyoq bilan ritm urib turish dirijyorlikda qat'ian man qilinadi.

**Kalla (bosh) holati.** Dirijyorning kallasi shunday holatda bo'lishi kerakki, xordagi ijrochilar uning yuzi va ko'zlarini aniq ko'rib turishi, dirijyorning o'zi ham har bir ijrochini nazorat qila olishi uchun qulay bo'lsin. Bundan xulosa qilib, dirijyorning kallasi pastga yoki boshqa timga qaramasdan, balki to'g'riga qaragan holda bo'lishi lozim, degan qoida kelib chiqadi.

Ko'p hollarda ilk dirijyorlik darslarini olayotgan o'quvchilar har bir harakatga bosh qimirlatish yo'li bilan yordam berish usulini qo'llashadi. Bunda har bir qo'l harakati bosh qimirlatishi bilan hamkorlikda bajariladi. Bunday o'quvchilarda dirijyorlik apparatining har bir



qismi o'z vazifasini mustaqil bajarilishini, ya'ni dirijyorlik apparatining erkinligini yo'lga qo'yish asosiy masala sifatida qaraladi. Lekin, shu bilan birga dirijyor har tarafga qarashdan qo'rqib faqatgina bir nuqtaga qarashga ham yo'l qo'ymasligi kerak. Dirijyorning kallasi xordagi biror bir partiyaga murojaat qilgan holdagina holatini o'zgartirishi mumkin.

Dirijyorning yuzi xor bilan ishlashda, ijroni olib borishda juda katta ahamiyatga ega. Dirijyor yuzi ma'noga, mimik harakatlarga boy bo'lishi kerak. Yuz mimikasi ijro ta'sirchanligining asosidir. Faqatgina qo'l harakatlari orqali asarning to'liq mazmunini tinglovchiga yetkazib bo'lmaydi. Dirijyorlik vaqtida dirijyor o'zining mimikasi orqali xor bilan "muomala" da bo'ladi va shu orqali ma'lum bir obraz yaratishda asosiy o'rin tutadi. Ijro vaqtida dirijyor uchun ijrochilar tomonidan yo'l qo'yilgan biror bir xatoga norozilik bildirish qat'iyan man qilinadi. Chunki bu bilan dirijyor yo'l qo'yilgan kamchilikni tuzatmaydi, balki ijrochilarning ruhi tushib ketishiga sababchi bo'ladi. Dirijyor yuzining mimikasi, uning qarashi, harakatlari ijro etilayotgan asarning xarakteriga mos bo'lishi kerak.

Artikulyatsiya ham ijrochilikda mahorat talab qiladi. Artikulyatsiya yordamida dirijyor xorga har bir tovushning xarakterini, diksiyaning aniq va ravshan ijro qilinishi kerakligini eslatib turadi. Boshlang'ich dirijyor o'zining artikulyatsion apparatini shunday mashqlantirishi kerakki, u bemalol ovoz chiqarmasdan xorga so'zlarni aniq va vaqtida aytib tura olishi mumkin bo'lsin.

Qo'llar – dirijyorlik apparatining eng muhim qismi bo'lib, xor bilan muomalaning asosiy vositasi hisoblanadi. Qo'l harakatlari bilan dirijyor musiqiy asarning xarakterini tasvirlaydi, uning chuqur mazmunini ifodalaydi, ijrochilarga ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchiga qo'llarni to'g'ri holatda umumlashtirishni o'rgatish hamda har bir qo'lning erkin harakatiga erishish, o'zini bemalol boshqarishini o'rgatish, qo'l qismlarining har biri erkin holatda va shu bilan birgalikda bir butunlikni tashkil etmogi lozimligini uqtirish zarur.

Qo'llarning to'g'ri holatini ta'minlashdagi asosiy talab-mushakllarning erkinligini, qulaylik va bir qismni mustaqilligini hamda ularning bir butunligini rivojlantirishdir.

**Bilak-qo'llarning eng mazmunga boy nozik qismi.** Harakatlarning to'g'riligi avvalambor bilakka, uning rivojlanganligiga bog'liq. Bilak orqali dirijyor ijroning nozik tomonlarini ko'rsatadi. Bilak-qo'lning eng mustaqil va eng harakatchan qismi, faqatgina u nisbatan sust qo'llar harakatini ishlab chiqishi mumkin. Dirijyorlik texnikasi birinchi navbatda bilakning harakatchanligini, ifodaliligini, elastikligini rivojlantirishga qaratilgan.

Asosiy dirijyorlik holatida bilak, ko'krak balandligida gorizontallarni egallashi to'g'ri hisoblanadi. Tuzilishi bo'yicha bilak shar yoki to'pni ushlamoqchi bo'lganday holatda turishi kerak: kaft ochiq, yerga qaragan holda bo'ladi, barmoqlar bilakning asosiy holatida sal egilgan holatda bo'lishi kerak. Barmoqlar orasi uncha ochiq emas, lekin shu bilan birga juda mahkam siqilgan ham bo'lvasligi kerak. Ularni erkin va bir-biridan ozgina masofada saqlash lozim. Katta barmoq boshqalariga nisbatan sal pastroqda va chekkaroqda joylashadi. Oxirgi ikkita barmoq sal chetga qarashi mumkin.

Xullas, bilak holatidagi eng ko'p uchraydigan kamchiliklarga to'xtalamiz.

**Juda ham siqilgan bilak.** Bunda bilak mustaqilligi va erkinligi yo'qoladi. Bunday holatda o'quvchilarga bilaklarni harakatlantiruvchi qo'shimcha mashg'ulotlar bajarishi tavsiya qilinadi. Masalan, bilaklarni ishlatgan, ya'ni harakatlantirgan holda qo'llarni yuqoriga va pastga tushirishi, soat strelkasi bo'ylab va teskariga aylana tasvirlash (fazoda); uchinchi barmoq bilan stakatto tarzida biror bir qattiq jism (masalan stol) ustiga urish hamda tezlik bilan qo'lni boshlang'ich holatga keltirish lozim.

**Shalpaygan tashlab qo'yilgan bilak.** Bunday holda o'quvchi qo'lning gorizontallarni yo'qotadi va qo'l barmoqlar bilan birgalikda pastga "og'ib" qoladi. Buning oldini olish uchun ochiq kaft bilan biror bir qattiq tekislikka urishi tavsiya qilinadi. Keyinchalik bu tekislikni faraz qilgan holda mashq takrorlanadi. Qo'l tekislikka zarb bilan kelib urilganda qo'lni birdaniga olmasdan, o'sha holatni yaxshilab ko'zdan kechirish hamda esda saqlash kerak. Barmoqlar oxiri bilan tovushni sezishning yo'qligi. Bunday hollarda barmoqlar shalpaygan holatda ortiqcha bo'lib tuyuladi. Bu kamchilik dirijyorlik sirlarini endigina o'rganishni boshlayotgan o'quvchilarda juda ko'p uchraydi va ko'p hollarda bu holat qiyinchilik bilan bartaraf etiladi.

O'quvchilarga hamma vaqt faqat pianinachilarda barmoqlar uchi qattiq, mustahkam bo'lishigina emas, balki dirijyorlarda ham barmoq oxirlari mustahkam bo'lmog'i kerakligini uqtirish kerak.

Barmoq oxiridagi mustahkamlikni sezish uchun o'quvchiga birinchi darslarda quyidagi usul yordam beradi: birinchi va uchinchi barmoqlar orasiga biror-bir predmet (qalamcha, cho'pchalar va b.) qo'yiladi. So'ng uni ya'ni predmetni barmoqlarning uchi bilan qisib ushlab, yuqoridan pastga va bir tomondan ikkinchi tamon sari harakatlantiriladi. Predmetlarni qo'ygandan so'ng ham barmoqlar uchidagi qattqlik, mustahkamlikni sezishga harakat qilish kerak.

**Qo'lning umumiy holati.** Pastga tushirilgan hamda tana bo'yiga parallel osilib turgan qo'lni elementar harakat bilan yuqoriga ko'tariladi. Bunda hech qanday siqilish, zo'r berish sezilmasligi kerak.

Qo'l ko'tarilganda tirsak sohasi bo'g'ini bukiladi va sal chetga tomon suriladi. Qo'lning balandligi ko'krak qafasining o'rtasiga to'g'ri kelishi to'g'ri holat hisoblanadi. Bilak qo'lning yuqori qismiga nisbatan sal ko'tarilgan, tirsak albatta bilakdan sal pastroqda joylashmogi lozim. Ikkala qo'lning ham bilaklari yelka kengligidan keng joylashgan bo'lmasligi kerak. Tayanch nuqtasi bo'lib barmoqlar uchi, tirsak va yelkalar xizmat qiladi.

O'qituvchiga qo'llarni qo'yishda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarga e'tibor berib, ularni bartaraf etish vazifasi yuklanadi. Bu xatolar quyidagilar bo'lishi mumkin:

**Oldinga cho'zilgan qo'llar.** Bunday holatda dirijyorlik qilish noqulay bo'ladi, qo'llarning muskullarida og'riq sezila boshlaydi. Yoki juda ham keng qo'yilgan qo'llar. Bu ikkala holatda ham dirijyorlik muloyim bajarilmay qoladi, elastiklik, ya'ni qo'llarning egiluvchanligi yo'qoladi.

a) **Tirsaklarning juda balandda qo'yilishi.** Dirijyorlik vaqtida bunday holatdagi tirsak elka balandligiga chiqib ketadi, elkalarning harakati cheklanadi, bilaklar pastga osilib qoladi. Bunda tayanch hissi yo'qoladi, harakatlar noqulay bo'ladi.

b) **Tirsaklarning past joylashuvi.** Qo'lning yuqori qismi va elka orasida o'tkir burchak hosil bo'ladi, kaftlar yerga qarab emas, balki vertikal va ochiq bo'lib qoladi. Umumiy tayanch nuqtasini tirsak bajaradi, dirijyor uzluksiz "sakrovchi" tirsaklar bilan harakat bajaradi, bilaklar esa umuman ishlamaydi.

v) **Tirsaklarning haddan tashqari chetga chiqishi.** Bunday holatda bilaklar bir-biriga juda yaqin joylashadi, buning natijasida elkar harakati yo'qoladi, ya'ni dirijyorlik tayanch nuqtasiz bajariladi.

**Siqilgan elkarlar.** Elka va elka bo'g'ini harakatlanmaydi, faqatgina qo'lning yuqori qismi hamda bilak ishlashi kuzatiladi. Dirijyor harakat amplitudasini kuch va erkinlikni yo'qotadi.

Qo'llarning to'g'ri holati mushkul ish bo'lib, o'qituvchi va o'quvchi tomonidan kuchli iroda talab qilinadi. Bunda shoshilinch, vaqt o'tishini kutish hamda kamchiliklarning o'z-o'zidan yo'qolib ketishiga ishonish juda zararli hisoblanadi. Dirijyorlikdagi boshlang'ich tushunchalar juda yaxshi mustahkamlanib qoladi va shu bilan birga mavjud kamchiliklar kelajakda juda murakkab tarzda bartaraf qilinadi. Bu esa o'qituvchining boshlang'ich ta'lim berishdagi rolining muhimligini isbotlaydi.

Qo'llarning to'g'ri holatini ta'minlash katta e'tibor, xotirjamlik, ko'zga ko'rinmas kamchiliklarni bartaraf qilib borishni talab qiladi hamda dirijyorlik apparatining chegaralangan erkinligi o'quvchiga kelajakda rivojlanishining asosi bo'lib xizmat qilishini esda saqlash lozim.

#### Qisqaradigan sxemaga asta-sekin o'tish

Birinchi hissaga odatdagidan ko'proq tayangan holda, qo'l asta-sekin boshqa hissalarini nisbatan noaniqroq harakat bilan ko'rsata boshlaydi, bu bilan ushbu hissalarining to'liq yo'qolishiga olib keladi. Oldingi taktdagi birinchi va keyingi taktdagi birinchi hissalar orasidagi vaqt qisqarib boradi va qo'l harakatlari amplitudasi tobora kichrayadi. Shu vaqtda sur'atning tezlashishi sodir bo'ladi.



### Qisqartirilgan sxemadan odatdagi sxemaga asta-sekin o'tish

Sur'atning sekinlashtirilishida yuqoridagi jarayonning teskari holati yuzaga keladi. Taktdagi kuchli hissani ko'rsatgan holda, dirijyor asta-sekin keyingi (odatdagi) sxemaning qolgan hissalarini aniqlashtirib ko'rsatishni boshlaydi. Bunda u qo'l harakatlarining amplitudasini tobora kengayтира boradi. Bu hissalarining harakati asta-sekin erkinlikka erishadi va oqibatda to'liq harakatlarga aylanadi. Qo'lning hissalar orasidagi harakati vaqti ortadi.

### Metronomlashtirish (Taktlashtirish)

O'rganuvchiga dirijyorlik apparatining har bir qismi hamda dirijyorning asosiy holati o'rgatilib chiqilgandan so'ng taktlashtirishga o'tish mumkin, ya'ni qo'l harakatini takt sxemasida o'rganish. Buning uchun avvalambor taktlashtirish bilan dirijyorlik qilish o'rtasidagi farqni tushuntirish lozim. "Qo'l harakati takt sxemasi bilan metrli qismlarini sanash metrli taktlashtirish" deb hisoblash qabul qilingan. Metrli taktlashtirish - bu hali dirijyorlik emas, chunki u badiiy tomondan boyitilmagan, lekin u (ya'ni, metrli taktlashtirish) shunday bir asoski, unga dirijyorlik tayanadi. Metrli taktlashtirishning asosiy masalasi ijroning ritmik shaklini, takt sxemasining aniq ko'rinishini yetkazish, taktdagi kuchli hamda kuchsiz hissalarini ko'rsatib berish kabi vazifalar bilan umumlashtiradi.

Metronomlashtirishga o'rgatishni dirijyorlik hissasi bilan analizidan, dirijyorlik harakatidan boshlash lozim. Dirijyor ijrochilarga ko'rinarli qo'l harakatlari bilan taktning metrli hissasi ko'rsatib turadi. Bu harakat o'ziga xos (spesifik) xususiyatga ega va uni o'rganuvchilarga batavsil tahlil qilish kerak. Avvalambor shuni ta'kidlash joizki, dirijyorlikdan ikki turdagi harakati farqlay olish kerak: tayyorlangan va tayyorlanmagan harakatlar. Tayyorlangan harakat tayyorlanmagan harakatdan farqli o'laroq o'zidan oldin yana bir kichik harakat mavjudligi bilan ajratiladi, bu kichik harakat o'zidan keyingi, ya'ni asosiy harakatning aniq va ravshan chiqishi uchun xizmat qiladi. Tayyorlangan harakatlar asosan odamlarning bir vaqtdagi harakatlari talab qilinadiganda uchraydi. Bunda ko'pincha harakatdan oldingi funksiyani biror bir so'z (masalan, balet, repetitsiyalarida - «I» va h.k.) bajaradi. Dirijyorlik jarayoni jamoaning bir vaqtdagi harakati bilan bevosita bog'liq va shuning uchun tayyorlangan harakatlar asosida tuziladi. Dirijyorlik hissasi va dirijyorlik auftakti bu harakatning yorqin misoli bo'ladi.

«Dirijyorlik auftakti deb, qo'lning shunday faol harakatiga aytiladiki, bunda oldindan rejalashtirilib tayyorlangan va shu bilan ijrochilarni unga ergashishlarini ogohlantiradigan harakat tushuniladi».

Dirijyorlik hissasi bilan tahlildan ko'rinib turibdiki, dirijyorlik hissasi auftakt, hissali harakat, zarb nuqtasi va shu nuqtadan o'tish vaqtidan tashkil topadi. Auftakt - asosiy harakatdan oldingi kichik harakat bo'lib, u tayyorlanmagan harakat bo'lib hisoblanadi, chunki qo'l boshlang'ich nuqtadan auftaktga birdaniga o'tadi. Auftaktning asosiy vazifasi ogohlantirish, keyingi harakatni ta'minlash uchun energiya to'plab olishdir. Ma'lumki, auftakt hamma vaqt hissaga teskari yo'nalishga ega bo'ladi. Auftaktdan keyin qo'l faol harakat bilan nuqta tomon yo'naladi, nuqtaga erishgach shu vaqtning o'zida itarilib keyingi harakatga o'tadi. Auftakt, "nuqta" hissali harakat bir butunni tashkil etadi va bir-biri bilan uzluksiz bog'lanadi.

Agar dirijyorlik hissasi bilan auftakt asosiy ogohlantiruvchi harakat bo'lib hisoblansa, unda "nuqta" - asosiy birlashtiruvchi. "Nuqta" - bu to'xtalish emas, balki hissaning chegarasidir. "Nuqta" ning keskinligi asar xarakteriga bog'liq: u keskin, o'tkir, muloyim yoki prujinasimon, ya'ni elastik bo'lishi mumkin. Lekin, hamma vaqt ham har qanday sur'at va dinamikada "nuqta" aniq va qat'iy bo'lishi kerak. "Nuqta" harakat vaqtida asosan panja bilan bajariladi, lekin bunda qo'l harakatlarning bir butunligi sezilib turishi kerak. "Nuqta" ni bajarishda panja tasavvur qilingan tekislikka keskin uriladi, hosil qilingan urilishdan keyin teskari tomon yo'naladi.

Muhim omillardan biri taktdagi kuchli hamda kuchsiz hissalarining birin-ketinligidir. Metrli dirijyorlik bu birin-ketinlikning aniq ko'rsatishi va bunda kuchli hissaga alohida e'tibor berilishini ta'minlashi kerak. Kuchli hissa dirijyorlikni tashkil qiluvchi asosiy ta'sir bo'lib, unga harakat tayanchining asosiy nuqtasi to'g'ri keladi. Dirijyorlikda kuchli hissa hamma vaqt

yuqoridan pastga tomon yo'nalishga ega bo'ladi, nisbatan kuchli hissa-chetga, kuchsiz hissalar esa kuchli hissalar orasida joylashadi. Kuchli hissa boshqalarga qaraganda sezilarliroq chiqishi uchun hamda dirijyorlik sxemasida ajralib turishi uchun uni bajarish kerak. Ma'lumki, kuchli hissa o'zidan oldin nisbatan sezilarliroq, aniq auftaktga ega va pastga tomon harakat katta energiya bilan bajariladi, bu energiya "nuqta" tomon harakatda oshadi. Kuchli hissaning bunday erkin harakat bilan bajarilishi forshendagi siqish bilan taqqoslanadi. Kuchli hissaning tekistlikdagi "nuqta" ga yetib kelgan vaqtida barmoqlar oxirida albatta tayanchni his qilish kerak. Kuchli hissani bajarib bo'lgandan so'ng qo'lning o'sha zahotiyoq bo'shashi ro'y beradi va keyingi hissaga (ya'ni kuchsiz hissaga) tayyorgarlik ko'riladi. Kuchli hissalar (frazalarning ba'zi bir o'ziga xos ko'rinishidan tashqari) sxemada kuchsiz hissalar bilan nafaqat amplitudasi bilan farqlanishi, balki o'zining ichki kuchi, harakatning o'zgachaligi bilan ajralib turishi kerak. Kuchli hissalarining to'g'ri bajarilishi, mushaklarning faolligi bilan qo'lning to'liq bo'sh va erkinligining birin-ketinligi bajara olish kelajakda aniq harakat, qo'lning erkinligi jamoa bilan ishlashga dirijyor uchun zarur bo'lgan qo'lning boshqaruvchi vazifasini his qilishni ta'minlaydi. Aksincha, bu harakatga yuzaki e'tibor berish, uning to'g'ri bajarilishiga, alohida yondashmaslik qo'li siqilgan, harakatlari esa «quruq» dirijyor yetishib chiqishiga sabab bo'ladi. Ijro qilinuvchi musiqaning xarakteri qo'lida turli xil his-tuyg'ularga boy harakatlarni bajarishni talab qiladi. Bu vaqtlarda harakatlar bir xilda, qolib ichiga solib qo'yilganday ijro qilina olmaydi. Ularning intevsivligi, ahamiyatligi avvalambor ijro qilinuvchi asarning xarakteriga, jumalarning o'zgachaliligiga va hokazolarga bog'liq bo'ladi. To'g'ri dirijyorlik harakatlarga erishish uchun bajarilishi kerak bo'lgan asosiy uslubiy ishlarni umumlashtiramiz. Ular quyidagilarga borib taqaladi:

a) albatta jismoniy erkinlikni, qulaylikni hamda dirijyorlik vaqtidagi samimiyligni sezish;

qo'lning har bir qismi, jumladan, panjaning erkinligi. Shu bilan birga qo'ldagi bir butunlikni, umumiylikni his qilish;

taktdagi kuchli hissani aniq ko'rsata olish, birinchi hissaning erkin ijrosini ta'minlash;

harakatlarning qat'iyli, ritmni aniq ko'rsatish (kuchsiz hissalarini tobora qisqartirmaslik); harakatdagi tejamkorlik.

### Dirijyorlikda o'ng va chap qo'lning mohiyati

Hayotda turli mukammal kasblar mavjud. Bularga adabiyot, rassomchilik, siyosat, sport, tibbiyot qatorida musiqachi kasbi ham kiradi. Musiqachi kasbi esa o'z navbatida bir necha yo'nalishlarga bo'linadi. Masalan, sozanda, xonanda, dirijyor va boshqalar. Shuni alohida aytish lozimki, dirijyorlik kasbi barcha musiqaga bog'liq kasblarni mujassamlantiradi va o'z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytganda dirijyor ham xonanda, ham sozandalik kasbini mukammal bilishi zarur. Chetdan qaraganda bu kasbni juda oson kasb deb o'ylaganlar xato qilishadi. Hattoki musiqachilar orasida ham ayrim hollarda dirijyorlik qilish uchun jiddiy bilimga ega bo'lish shart emas degan fiklar ham mavjud. Shunday hollar bo'ladiki, yaxshi ijrochilar, yakkaxonlar dirijyorlikdan 4-5 soat dars olib yoki birorta qo'llanmalarini o'qib pult oldida turib dirijyorlik qilishga o'tishgan va buning oxiri ularni boshi berk ko'chaga kiritib qo'ygan. Professional musiqachilar bu fikrdan yiroq bo'lib dirijyorlikni alohida kasb va bu kasbni egallash uchun dirijyorlik maktabini to'liq o'tish lozimligini aytishadi.

Endi dirijyorlikdagi ayrim elementlarga to'xtalib o'tsak. Dirijyorlikda qo'llar asosiy vosita hisoblanadi. Keling endi dirijyorlikdagi chap qo'l haqida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Agar o'ng qo'l asarning o'ltahovini, sur'atini aniq takt harakatlari bilan olib borsa, chap qo'l boshqa vazifani olib boradi. Dirijyorlikda gavda, yuz, ko'z, bosh, qo'l, panja kabi inson tanasining har bir qismlari o'zicha katta ahamiyatga ega. Shular orasida eng ahamiyatlirog'i qo'llar hisoblanadi. Dirijyorlikda har bir qo'lning o'z vazifasi bor.

Takt usulini olib borishdan holiroq bo'lgan chap qo'l asarning badiiy qismini ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Chap qo'l asardagi ketma-ket yoki to'satdan uchraydigan dinamik o'zgarishlarni, kuyning xarakterini, uning frazirovkasini, kuyning boshlanishini, tugallanishini



va boshqalarni ko'rsatadi. Chap qo'l xordagi ovozlarning o'zgarishini, ya'ni partiyalarni bir-biriga o'tishini ham ko'rsatadi. Chap qo'l bilan mukammal harakat qilish bu faqat bilimlar yig'indisi emas, balki dirijyorlikning individual xarakterini, uning o'ziga xosligini ochib beruvchi badiiy- ijodiy jarayondir. Albatta chap qo'l harakatida ham usulni olib borish elementlari bor. Ammo u o'ng qo'ldagidek emas. Ikki qo'lnig ham harakatlari bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda davom etadi. O'ng qo'l asar dinamikasiga monand katta yoki kichik masofadagi harakatda asarning sur'atini olib borsa, chap qo'l o'ng qo'lga yordamchi bo'lib, musiqada o'ng qo'l ko'rsatmaydigan badiiy va emotsional tomonlarini ochib beradi. Chap qo'l va o'ng qo'lnig barcha harakatlari bitta maqsad yo'lida ya'ni ijro etilayotgan musiqaning juda yuksak to'liq ifodalilikka erishish yo'lida harakat qilishadi.

**Dinamika** - agar o'ng qo'l uchun taktirovkaning uch xil asosiy yuqorilik me'yori mavjud bo'lsa, chap qo'l esa o'lchab bo'lmaydigan nisbatan keng diapazonga ega. Chap qo'lnig asardagi dinamikalarini ko'rsatishning holatlarini alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

**Fortissimo.** Gavda oldida yelkadan yuqori balandlikda ochiq yuqoriga qaragan kaft bilan ko'rsatiladi. Qo'l ma'lum vaqt bir joyda harakatsiz turadi yoki gorizontaal yo'nalishda chap tomonga ohista harakat qiladi. Qo'l harakati faol, keskin, to'liq bo'ladi.

## II-BOB

### ODDIY SXEMALAR DIRIJORLIK TEXNIKASINI MUKAMMALLASHTIRISH UCHUN MASHQLAR


*Musiq-a u yo bu mavjudodlarning qon semantikasi bilan bog'liq- borlik  
va ajdodlar ruhiyyatini bir- birovi bilan bog'lovchi ma'naviy omil sifatida, badiyyat  
amaliyotining ruhiyyatshunoslik tilidir! S.B. Saidiy.*

Hayotda qanchaki kasblar bo'lmasin ularning barchasini mukammal o'zlashtirish yoki egallash tinimsiz va muntazam mashqlar evaziga amalga oshiriladi. Musiq-a yo'nalishida mashqni etyud deb yuritishadi. Biz bilamizki, inson tanasidagi barcha a'zolari, shu jumladan qo'llari, oyoqlari bir-biriga vobasta harakatlanadi. Bir vaqtning o'zida ikki xil harakatni bajarish uchun albatta ko'p yillik muntazam mashq qilish va ko'nikma hosil qilish kerak bo'ladi. Dirijyorlikda ikkala qo'llar bir vaqtning o'zida ikki xil harakatni bajarish holatlari juda ko'p uchraydi. Ma'lumki, dirijyorlikda choraktalik notadan uzun bo'lgan notalar, bir-biriga liga bilan bog'langan notalar mazkur notaning cho'zimiga mos sanoqda ushlab ko'rsatiladi. Ya'ni xor asarlarida uchraydigan nuqtali choraktalik, yarimtalik, nuqtali yarimtalik va butun notalar kuylanganda belgilangan qo'lnig harakati shu nota o'lchoviga teng sanoqda ma'lum hissada, yoki nuqtada ushlab turiladi. Shunday ekan, xor yoki orkestr uchun yozilgan asarlarni dirijyorlik qilishda talaba bu kabi murakkabliklarga tez-tez to'g'ri keladi. Biz quyida ko'rsatayotgan mashqlar (etyudlar) dirijyorlikda qo'llarning bir-biriga bog'liq bo'lmagan harakatlarni bajarish uchun, ya'ni bir qo'lda dirijyorlik setkasini olib borib, ikkinchi qo'lda qaysi ovoz kuylashini yoki cho'zib kuylanadigan notalarni ko'rsatib turish va talabalarda bunga ko'nikma hosil qilish uchun juda ham qo'l keladi deb umid qilamiz. Shu bilan birga talabalarga kelgusida kattaroq asarlarni dirijyorlik qilishda mashqlarda ko'rsatilgan yoki ishlab chiqilgan ritmik shakllar uchrasa, hech qiyinchiliksiz dirijyorlik qilishiga asos bo'ladi. Shuni aytish lozimki, mashqlar (etyudlar) turli xarakterlarda va turli tezliklarda (ligato, stakato, muloyim, keskin, sustroq, tezroq va tez) bajarilsa yana ham maqsadga muvofiq bo'ladi, boshqacha qilib aytganda, yana ham ko'proq samara beradi.

Mashqlar oddiylikdan murakkablikka qarab olib borilgan. Har bir mashqning yuqorigi qatori chap qo'l uchun, pastki qatori esa o'ng qo'l uchun yozilgan. Mashqlardagi ritmik shakllar aniq ko'rinishi uchun nota yo'lining o'rtasida, ya'ni **LYA** notasida yozilgan. Bu mashqlar aynan **LYA** notasida ijro etilishi yoki bajarilishi lerak degani emas. Mashqlarni bajarishda bu ritmik shakllar sanab dirijyorlik qilinishi ham mumkin, gamma asosida dirijyorlik qilinishi ham mumkin. Macalan: Gamma asosida dirijyorlik qilinganda mashqning birinchi takti birinchi oktava **DO** notasida ijro qilinsa, ikkinchi takti **RE** notasida, uchinchi takti **MI** notasida va shu tariqa ikkinchi oktava **DO** notasigacha olib boriladi va shu tariqa yana boshlangan birinchi oktava **DO** notasiga qaytadi. Mashqlar turli o'lchovlarda yozilgan. Ushlab ko'rsatiladigan notalar taktning oxirgi hissalariga to'g'ri kelsa, oxirgi hissaning ikkinchi qismi kelgusi takt uchun aufakt vazifasini bajaradi. Har bir mashqqa alohida-alohida izoh yozilgan. Ya'ni, mashqning mohiyati, yoki mashqni bajarishdan ko'zda tutilgan maqsad qisqacha yoritilgan. Endi bajariladigan mashqlarni birma-bir izohlab beramiz.



## 2/4 o'lchovidagi mashqlar.



Chap  
qo'l

### 1-mashq.


Bu mashq faqatgina choraktalik notalardan tashkil topganligi sababli ikkala qo'llar ham bir xil harakatlanadi. Ya'ni 2/4 o'lchovidagi dirijorlik sxemasini olib boradi. Shuni aytish lozimki, mashq turli xarakterlarda va turli tezliklarda (ligato, stakato, muloyim, keskin, sustroq, tezroq va tez) bajarilsa yana ham maqsadga muvofiq bo'ladi.




### 2-mashq.

Bu mashqda birinchi taktida ikkala qo'llarda ham choraktalik notalar yozilgan. Ikkinchi taktida esa, ikkala qo'llarda ham yarimtalik notalar yozilgan.

Demak, dirijor birinchi taktida ikkala qo'llar bilan ham dirijorlik sxemasini ko'rsatadi. Ikkinchi taktida esa, ikkala qo'llar bilan ham yarimtalik notalarni ushlab ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, yuqorida aytib o'tganimizdek, gammaning DO notasida dirijorlik qilinsa, RE notasida ushlab ko'rsatiladi va yana MI notasida dirijorlik qilinadi va hokazo. Bu mashqda ushlab ko'rsatilgan yarimtalik notaning 4-qismi, ya'ni oxirgi qismi kelgusi taktga auftakt vazifasini bajaradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yarimtalik notani ushlab ko'rsatgandan keyin navbatdagi taktga o'tishda auftaktga jiddiy e'tibor berish zarur.



O'ng  
qo'l



### 3-mashq.

Bu mashqning birinchi taktida ikkala qo'llarda ham choraktalik notalar yozilgan. Ikkinchi taktida esa, chap qo'lda yarimtalik nota va o'ng qo'lda choraktalik notalar yozilgan. Demak, bu mashqning birinchi takti har ikkala qo'llar bilan dirijorlik qilinadi. Ikkinchi taktida chap qo'l yarimtalik notani ushlab ko'rsatadi. O'ng qo'l esa, 2/4 o'lchovidagi dirijorlik sxemasini ko'rsatib boradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, chap qo'lda yarimtalik notani ushlab ko'rsatgandan keyin navbatdagi taktga o'tishda auftaktga jiddiy e'tibor berish zarur.



### 4-mashq.

Bu mashq 3-mashqning teskarisi o'laroq, qo'llarning vazifasi o'zgaradi. Ya'ni mashqning birinchi taktida ikkala qo'llarda ham choraktalik notalar yozilgan. Ikkinchi taktida esa, o'ng qo'lda yarimtalik nota va chap qo'lda choraktalik notalar yozilgan. Demak, mashqning birinchi taktida har ikkala qo'llar bilan dirijorlik qilinadi. Ikkinchi taktida esa, o'ng qo'l yarimtalik notani ushlab ko'rsatadi. Chap qo'l esa, dirijorlik qilib sxemani ko'rsatib boradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'ng qo'lda yarimtalik notani ushlab ko'rsatgandan keyin navbatdagi taktga o'tishda auftaktga jiddiy e'tibor berish zarur.



### 5-mashq.

Bu mashqning birinchi taktida chap qo'lda yarimtalik nota, o'ng qo'lda ikkita choraktalik notalar yozilgan. Demak, chap qo'lda ushlab ko'rsatiladi, o'ng qo'lda esa, dirijorlik sxemasi olib boriladi. Mashqning ikkinchi taktida birinchi taktidagi ritmik shaklning teskarisi o'laroq, chap qo'lda dirijorlik sxemasi olib boriladi. O'ng qo'lda esa, yarimtalik nota ushlab ko'rsatiladi. Yuqoridagi mashqlarda ta'kidlaganimizdek, ushlab ko'rsatiladigan notalarni aniq nuqta bilan qo'lni qo'yish va kelgusi taktga aniq auftakt berishga jiddiy e'tibor berish zarur.





#### 6-mashq.

Bu mashqda o'zbek milliy musiqasida ko'p uchraydigan ritmik shakl berilgan. Mashqdagi har bir takt bitta nuqtali choraktalik va sakkiztalik notalardan tashkil topgan. Musiqa ijrochiligida nuqtali chopaktalik nota **1i 2** ga sanaladi. Demak, dirijorlikda bu kabi notalar ushlab ko'rsatiladi. Modomiki, chap qo'lda ham o'ng qo'lda ham bir xil ritmik shakldagi notalar, ya'ni nuqtali choraktalik va sakkiztalik notalar yozilgan ekan, har ikkala qo'llar bilan ham nuqtali choraktalikni **1i 2** ga ushlab ko'rsatiladi. Taktning to'rtinchi choragidagi sakkiztalik nota dirijorlik qilib ko'rsatiladi va shuning o'zi kelgusi taktga auftakt bo'lib xizmat qiladi.



#### 7-mashq.

Bu mashqda chap qo'lda 6-mashqdagi ritmik shakl berilgan. O'ng qo'lda esa, oddiy choraktalik notalar yozilgan. Demak, chap qo'lda nuqtali choraktalik nota ushlab ko'rsatilsa, o'ng qo'lda **2\4** o'lchovidagi dirijorlik sxemasi olib boriladi.



#### 8-mashq.

Bu mashq 7-mashqning teskarisi o'laroq, chap qo'lda oddiy choraktalik notalar, o'ng qo'lda esa, nuqtali choraktalik va sakkiztalik notalar yozilgan. Demak, chap qo'lda **2\4** o'lchovidagi dirijorlik sxemasi olib boriladi, o'ng qo'lda esa, nuqtali choraktalik nota ushlab ko'rsatiladi.



#### 9-mashq.

Bu mashqda 7-va 8- mashqlardagi ritmik shakllar umumlashtirilib, chap va o'ng qo'llarda navbati bilan ko'rsatiladi. Mashqning birinchi taktida chap qo'lda nuqtali choraktalik va sakkiztalik nota yozilgan. Demak, chap qo'lda nuqtali choraktalik nota ushlab ko'rsatiladi va o'ng qo'lda esa, oddiy choraktalik notalar yozilganligi sababli **2\4** o'lchovidagi dirijorlik sxemasi olib boriladi. Mashqning ikkinchi taktida shuning teskarisi, ya'ni chap qo'lda oddiy choraktalik notalar yozilgan bo'lib, o'ng qo'lda esa, nuqtali choraktalik nota yozilgan. Mashqning bu taktida chap qo'lda **2\4** o'lchovidagi dirijorlik sxemasi olib boriladi, o'ng qo'lda esa, nuqtali choraktalik nota ushlab ko'rsatiladi. Shu zaylda har taktida qo'llarning vazifasi almashinib kelaveradi.



#### 10-mashq.

Bu mashqning birinchi taktida chap qo'lda nuqtali choraktalik nota va o'ng qo'lda oddiy choraktalik notalar yozilgan. Demak, chap qo'lda nuqtali choraktalik nota ushlab ko'rsatiladi, o'ng qo'lda esa, oddiy choraktalik notalar yozilganligi sababli **2\4** o'lchovidagi dirijorlik sxemasi olib boriladi. Mashqning ikkinchi taktida ikkala qo'llarda ham oddiy choraktalik notalar yozilgan. Demak, ikkala qo'llarda ham **2\4** o'lchovidagi dirijorlik sxemasi olib boriladi. Mashqning mazmuni shundan iboratki, birinchi taktida chap qo'lda ushlab ko'rsatiladi va ikkinchi taktida oddiy sxema olib boriladi. Mana shu holat o'zgarib almashinib kelaveradi.



#### 11-mashq.

Bu mashqda chap qo'lda bitta sakkiztalik nota ikkita sakkiztalik pauza va yana bitta sakkiztalik nota yozilgan. O'ng qo'lda oddiy choraktalik notalar yozilgan. Demak, chap qo'lda birinchi sakkiztalik notani ko'rsatib uzish kerak va ikkita sakkiztalik pazani kutib, taktning oxiridagi sakkiztalik notani yaxshi auftakt bilan ko'rsatib, keyingi taktidagi sakkiztalik notani aniq ko'rsatish talab qilinadi. O'ng qo'lda esa, oddiy choraktalik notalar yozilganligi sababli **2\4** o'lchovidagi dirijorlik sxemasi olib borilaveradi. Ushbu mashq chap qo'lda statatoda ijro etilsa, o'ng qo'lda oddiy dirijorlik qilinishi bilan ham murakkabdir.





### 5-синф (IV-чорак 29 -дарс)

Мавзу: “В.А.Моцарт, Ж.Бизе, П.Чайковский, Н.Римский-Корсаков каби дунё тан олган бастакорларнинг опералари”

Технологик карта

Мавзу:	“В.А.Моцарт, Ж.Бизе, П.Чайковский, Н.Римский-Корсаков каби дунё тан олган бастакорларнинг опералари”.
Мақсад ва вазифалар	<b>Мақсад:</b> Ўқувчиларга “В.А.Моцарт, Ж.Бизе, П.Чайковский, Н.Римский-Корсаков каби дунё тан олган бастакорларнинг опералари” ҳақида тушунча бериш. <b>Вазифалар:</b> Ўқувчиларда мавзуга нисбатан қизиқиш уйғотиш, мавзу асосида билим ва кўникмаларни шакллантириш ва кенгайтириш. Мавзуга оид тарқатилган материалларни ўқувчилар томонидан яқка ва гуруҳ ҳолатида ўзлаштириб олишлари ҳамда суҳбат-мунозара орқали тарқатма материаллардаги матнлар қай даражада ўзлаштирилганлигини назорат қилиш, уларнинг билимини баҳолаш.
Ўқув жараёнининг мазмунини	“В.А.Моцарт, Ж.Бизе, П.Чайковский, Н.Римский-Корсаков каби дунё тан олган бастакорларнинг опералари” ҳақида тушунча бериш. Ўқувчиларга дунёга машҳур опера мусиқа парчасидан намуналар эшиттириш.
Ўқув жараёнининг амалга ошириш	<b>Услуб:</b> Ҳикоя, суҳбат, “Кластер”, “Ақлий ҳужум”, “Тест”. <b>Шакл:</b> Суҳбат-мунозара, кичик гуруҳлар ва жамоада ишлаш. <b>Восита:</b> Тарқатма материаллар, аудио СД диск ёзувлари, фортепиано чолғу асбоби, рағбарлантирувчи карточкалар. <b>Усул:</b> Тайёр ёзма материаллар. <b>Назорат:</b> Оғзаки назорат, савол-жавоблар, кузатиш. Ўз-ўзини назорат қилиш. <b>Баҳолаш:</b> Рағбарлантириш, 5 балли тизим асосида баҳолаш.
Кутиладиган натижалар	<b>Ўқитувчи:</b> Мавзунини берилган вақт ичида барча ўқувчилар томонидан ўзлаштирилишига эришиш. Ўқувчилар фаоллигини ошириш. Ўқувчиларда дарсга нисбатан қизиқиш уйғотиш. Дарс жараёнида кўпроқ ўқувчини баҳолашга эришиш. Савол-жавобларга қатнашиб, мустақил фикрлашга ўргатиш. <b>Ўқувчи:</b> Янги билимларни эгаллайди, яқка ҳолда ва гуруҳ бўлиб ишлашни ўрганади. Нутқи ривожланади ва эслаб қолиш қобилияти кучаяди. Ўз-ўзини назорат қилишни ўрганади. Қисқа вақт ичида кўп маълумотга эга бўлади ва баҳолай олади.
Келгуси режалар	<b>Ўқитувчи:</b> Янги педагогик технологияларни ўзлаштириб, дарсда қўллаш. Ўз устида ишлаш, мавзунини ҳаётий воқеалар билан

	боғлай олиши, педагогик маҳоратини ошириши лозим. <b>Ўқувчи:</b> Мустақил ишлашни ўрганади. Фикрини аниқ баён қила олади. Шу мавзуга асосланиб қўшимча материаллар топади, уларни ўрганади. Фикри ва гуруҳ фикрини таҳлил қилиб, мустақил фикрлаш малакасини ҳосил қилади.
--	---

**Мавзу:** В.А.Моцарт, Ж.Бизе, П.Чайковский, Н.Римский-Корсаков каби дунё тан олган бастакорларнинг опералари”.

**Дарснинг тарбиявий мақсади:** Ўқувчиларда мусикага бўлган меҳрларини уйғотиш ва эстетик ҳис туйғуларини шакллантириш.

**Дарснинг ривожлантирувчи мақсади:** Ўқувчиларда жаҳон мусикасига бўлган қизиқишларини ва ижодий қобилиятларини ривожлантириш. Мусика асарларининг маънавий-эстетик мазмунини ҳис қилиш қобилиятларини шакллантириш.

**Дарс методи:** Ҳикоя, суҳбат, “Кластер”, “Тест”.

**Дарс жиҳози:** 5-синф мусиқа дарслиги, йиллик иш режа, режа конспект, фортепиано мусиқа чолғу асбоби, техник воситалар (Аудио СД диск ёзувлари), рағбарлантирувчи карточкалар, тарқатма материаллар.

*Дарснинг блок чизмаси:*

Т/р	Дарс фаолиятининг кетма-кетлиги	дақиқа
1	<b>Ташкилий қисм:</b> а) саломлашиш, б) даволат аниқланади, в) ўқувчиларнинг дарсга тайёргарлиги текширилади.	2
2	<b>Ўтилган мавзунини такрорлаб мустахкамлаш:</b> Ўтилган мавзулар тест синовлари, мусиқа саводхонлиги юзасидан тузилган саволлар орқали такрорланиб, мустахкамланади.	8
4	<b>Янги мавзу:</b> 1. <b>Жамоа бўлиб қуйлаш:</b> Р.Абдуллаев мусикаси “Парвоздаги қушчалар” қўшиғи такрорланиб, Ш. Ёрматов мусикаси “Оймоможон ром бўлди” (дарслик 75 бет) қўшиғи жумлаларга бўлиб ўргатилади. Соф интонацияда қуйлашга эришилади. 2. <b>Ўқитувчининг тушунтириши.</b> Ўқувчиларга ҳикоя, “Кластер” усулидан фойдаланиб, “В.А.Моцарт, Ж.Бизе, П.Чайковский, Н.Римский-Корсаков каби дунё тан олган бастакорларнинг опералари” ҳақида тушунча бериш.	20
5	<b>Тинглаш:</b> Нота ёзувларидан ёки аудио СД диск ёзувларидан фойдаланиб, дунё тан олган бастакорларнинг опер мусиқа парчасидан намуна эшиттириб суҳбат-мунозара ўтказилади.	8
6	<b>Дарс якуни:</b> Тест орқали мавзунини мустахкамлаш. <b>Уйга вазифа:</b> Мавзунини ўқиш.	7

**Дарснинг бориши:** Ўқувчилар синфга ўқитувчи танлаган мусиқа садолари остида кириб келишади.

**Ташкилий қисм:** Саломлашиб, даволат аниқланади, ўқувчиларнинг дарсга тайёргарлиги текширилади. Ўтилган мавзуларни такрорлаб мустахкамлаш учун ҳар бир катордаги 10 тадан ўқувчига саволлар тарқатилади ва берилган 4 дақиқа ичида саволларга тўғри жавоб беришган ўқувчилар қувноқ нотачалар билан рағбарлантирилади.

1. Оркестр деганда нимани тушунасиз?



2. Қандай оркестр турларини биласиз?
3. Ўзбек халқ чолгулари оркестри неча гуруҳдан иборат?
4. Ўзбек халқ чолгулари оркестрининг дамли чолгулар гуруҳига қайси чолгулар киради?
5. Ўзбек халқ чолгулари оркестрининг мезробли чолгулар гуруҳига қайси чолгу асбоблари киради?
6. Ногора, кайроқ, сафонл, дойра чолгу асбоблари ўзбек халқ чолгулари оркестрининг қайси гуруҳига киради?
7. Ўзбек халқ чолгулари оркестрининг торли-камонли чолгулар гуруҳига кирувчи чолгуларни айтинг?
8. Симфоник оркестр деганда нимани тушунаси?
9. Симфоник оркестр неча гуруҳдан ташкил топади?
10. Симфоник оркестрнинг ёғоч дамли чолгулар гуруҳига қайси чолгу асбоблари киради?
11. Симфоник оркестрнинг мис дамли чолгулар гуруҳига қайси чолгу асбоблари киради?
12. Литавра, барабан, тарелка симфоник оркестрнинг қайси гуруҳига киради?
13. Симфоник оркестрнинг торли-камонли чолгулар гуруҳига кирувчи чолгуларни айтинг?
14. Хор деганда нимани тушунаси?
15. Хорда қандай овозлар бор?
16. "Тенор" ва "Бас" овозлар кимларга хос? "Сопрано" ва "Алт" овозлар-чи?
17. Сахнавий мусиқа асарларига қандай асарлар киради?
18. "Балет" деганда нимани тушунаси?
19. "Опера" деганда нимани тушунаси?
20. "Мусикали драма" жанри ҳақида гапириб беринг?
21. Ўзбек ракс санъатининг ривожланишига хисса қўшган раққосалардан кимларни биласиз?
22. "Мусикали комедия" жанри ҳақида гапириб беринг?
23. Қандай ўзбек балетларини биласиз?
24. Ўзбек композиторларини айтинг?
25. Ж.Верди яратган операларни айтинг?
26. Мусикали драмаларга мисоллар келтиринг?
27. Алтерация белгиларини санаб беринг?
28. Мусикада қандай интервалларни биласиз?
29. Мусикада қандай динамик белгилар бор?
30. Миллий ракс услубидаги балетларни айтинг?

Ҳар бир қаторга слайдда мусиқа саводхонлиги ва утилган мавзулар юзасидан расмлар курсатилади ва қаторларга қўйидаги саволлар берилади.

**1-қаторга** "Ўзбек бастакорларининг исми шарифларини айтинг"

**2-қаторга** "Булар қандай белгилар. Бу белгилар нота чизигида қандай ёзилади ва вазифасини айтинг"


**3-қаторга** "Бу чолгулар қайси оркестрда чалинади ва қайси гуруҳларга хос"

Ҳар бир қатордаги ўқувчилар жавобини ёзиб боришади ва фикрлар умумлаштирилиб, қаторлар қувноқ нотачалар билан рағбарлантирилади.

**Жамоа бўлиб куйлаш:** Ўқитувчи хоҳишига кўра овоз сошлаш машқлари бажарилиб, Р.Абдуллаев мусиваси "Парвоздаги қушчалар" кўшиғи такрорланиб, Ш. Ёрматов

мусикаси "Оймоможон ром бўлди" (дарслик 75 бет) кўшиғининг муаллифлари кўшиқ ҳақида ўқувчиларга тушунча берилади. Кўшиқ ўқувчиларга ўқитувчи томонидан куйлаб берилиб, жумлаларга бўлиб ўргатилади. Соф интонацияда куйлашга эришилади. (10 дақиқа)

**Янги мавзу:** Опера санъати пайдо бўлгандан буён қанча-қанча бастакорлар бу жанрда қалам тебратиб кўришган. Турли тилларда опералар сахналаштирилган. Улардан айримлари фақат бир марта сахнада қўйилган. Лекин камдан-кам композиторларнинг опералари. Ж.Вердининг опералари каби асрдан-асирга ўтиб келмоқда. В.А.Моцарт, Ж.Безе, П.И.Чайковский, Н. Римский-Корсаков каби дунё тан олган композиторларнинг номлари ва улар яратган опера дурдоналари бутун дунёга машҳурдир. "Кластер" фикрларнинг тармоқланиши методидан фойдаланиб опера дурдоналари ҳақида тушунтирилади.



В.А.Моцарт 1756 йил 27-январда Залсбург шаҳрида туғилган. У мусикага жуда ёшлагидан қизиқа бошлади. У 3 ёшида клавишда чалишни, 4 ёшида эса мусиқа асарларини ярата бошлади. 6 ёшидан концертларда иштирок этади. Унинг мюнхен, Вена, Париж, Лондон ва бошқа шаҳарлардаги ажойиб концертлари ҳаммани қойил қолдирди. 12 ёшида Моцарт бир неча опера, симфония, концерт ва бошқа мусиқа асарларининг муаллифи бўлиб танилган эди. Моцартни XVIII аср мужизаси деб аташди.

В.А.Моцарт 1791 йил 15 декабрда 36 ёшида вафот этди. Ўзининг қисқа ҳаёти давомида у 18 та опера, 50 дан ортиқ симфония, 40 та концерт, раманслар, ариялар бир қанча чолгу асарларини яратди. Моцарт машаққатли ҳаёт кечиришига қарамай, ўз асарларида шодлик ва бахтни куйлайди.



**Музыка тинглаш:** Нота ёзувлари аудио CD диск ёзувларидан фойдаланиб, дунё тан олган бастакорларнинг опер музыка парчасидан намуна эшиттириб суҳбат-мунозара ўтказилади. Тингланган асар таҳлил қилинади. Ўз фикрларини билдирган ўқувчилар қувнов нотачалар билан рағбарлантириб борилади.

**Дарс якуни:** Тестдан фойдаланиб, мавзу мустаҳкамланади. Ўқитувчи тест ёзилган карточкаларни ҳар бир қатордаги ўқувчиларга тарқатади, ўқувчилар кетма-кет жавоб беришади.

1. "Опера" деганда нима тушунилади?
    - а) музыка ва ракс ҳаракатлари орқали вовеалар яратиш санъати
    - б) лебретто яъни шерий-драматик пьеса асасида яратилган асар
    - д) музыка садолари остида раксга тушиш
  2. В.А.Моцарт яратган опералар қайсилар?
    - а) "Аида", "Иван Сусанин"
    - б) "Сехрли най", "Фигаронинг уйланиши"
    - д) "Руслан ва Людмила", "Бурон"
  3. "Қор қиз" операсини қайси композитор яратган?
    - а) Римский-Корсаков
    - б) В.Моцарт
    - д) М.Глинка
  4. Қайси қаторда сахнавий-музыка асарлари туғри кўрсатилган?
    - а) опера, лапар, кантата
    - б) оркестр, кантата, сюита
    - д) опера, балет, музыкали драма ва комедия, оперетта
  5. Ж.Бизе яратган опера қайси?
    - а) "Кармен"
    - б) "Қор қиз"
    - д) "Аида"
  6. П.И.Чайковский қаерлик композитор?
    - а) Англиялик
    - б) Россиялик
    - д) Австриялик
  7. П.И.Чайковский яратган опералар қайсилар?
    - а) "Сехрли най", "Аида"
    - б) "Қор қиз", "Отелло"
    - д) "Евгений Онегин", "Топпон хоним"
  8. Римский-Корсаков яратган операларни топинг?
    - а) "Садко", "Қор қиз", "Шоҳ Султон ҳақида эртак"
    - б) "Сехрли най", "Бурон"
    - д) "Кармен", "Риголетто"
  9. "Балет" деганда нимани тушунаси?
    - а) ҳам куйлаб, ҳам раксга тушишни
    - б) қўшиқ куйлашни
    - д) Музыка ва ракс ҳаракатлари орқали образлар, воқеалар яратиш санъати.
- Фаол қатнашган ўқувчиларга рағбарлантирувчи қувнок нотачалар тарқатилади. Ҳар бир қатордаги ўқувчилар дарс фаолияти давомида олишган кизил, (5 балл), яшил (4 балл), кўк (3 балл) нотачалар умумлаштирилиб, доскада ёзилади ва дарсда ғолиб қатор аниқланади. Қувнок ноталарни қулга киритган ўқувчилар рағбарлантирилиб, кундалиқ дафтарларига баҳо қўйилади.

**Ўйга вазифа:** Мавзунини ўқиш. Ш.Ёрматов мусикаси "Оймоможон ром бўлди" қўшиғини ёдлаш.

### Мавзу: Замонавий мусиканинг турлари

**Дарсининг мақсади:** Замонавий музыка турлари бўйича билим, кўникма ва малакаларни шакллантириш.

**Дарсининг вазифалари:** Замонавий музыка турлари ҳақида билим бериш, ўқувчиларда ижодий маҳорат нафосат ва бадий дидни ўстириш, фикр доирасини кенгайтириш, мустақиллик ва ташаббускорликни тарбиялаш. Музыка асарини тинглаш, қўшиқлар куйлаш орқали ўқувчиларда музикаий қобилият ва иқтидорни ривожлантириш.

**Дарсининг методи:** Савол-жавоб, "Кластер", "Ақлий ҳужум".

**Дарсининг жиҳози:** Фортепиано чолғи асбоби, режа, конспект, 6-синф дарслик, тарқатма материаллар, карточкалар, нота ёзувлари, аудио CD диск ёзувлари.

**Дарсининг бориши:**

1. Ташкилий қисм.
2. Ўтилган мавзу такрорлаш баҳолаш.
3. Янги мавзу баёни.
4. Янги мавзунини мустаҳкамлаш
5. Дарсни якунлаш ва ўйга вазифа

**1. Ташкилий қисм:** Ҳар бир ўқувчи ўқитувчи столида ёзилган (созанда, хонанда, ракс) карточкалар олади. Карточкаларда ёзилган сўзни айтмасдан куйлаб, ўхшаш синоним ҳаракатларни кўрсатиб, "Созанда", "Хонанда", "Ракс" гуруҳ номлари ёзилган столларга ўтиради.

**2. Ўтилган мавзуларни такрорлаш ва баҳолаш**

Ўтилган мавзуларни мустаҳкамлаш юзасида тестдан фойдаланиб, ҳар бир гуруҳга ўтилган мавзулар юзасидан тузилган тестлар тарқатилади.

#### 1-гуруҳ учун

1. Мумтоз музыка кимлар томонидан яратилади ва ижро этилади?
  - а) композиторлар томонидан яратилади ва ижро этилади.
  - б) хофизлар томонидан яратилади ва ижро этилади.
  - в) хонандалар томонидан яратилади ва ижро этилади.
  - г) созандалар томонидан яратилади ва ижро этилади.
  - д) истеъдодли бастакорлар томонидан яратилади, юксак малакага эга бўлган хонанда ва созандалар томонидан ижро этилади.
2. Мумтоз куйлар қайси чолғу созларида ижро этилади?
  - а) карнай, кларнет, доира.
  - б) дитор, танбур, сурнай.
  - в) доира, пионина, най.
  - г) дутор, танбур, акордион.
  - д) скрипка, чанг, гижжак.
3. Мумтоз ашула ижрочиларини кимлар деб атаيمиз?
  - а) бахшилар
  - б) хофизлар
  - в) хор
  - г) созандалар
  - д) хонандалар

#### 2-гуруҳ учун

1. Ҳарам мақоми нима деб юритилади?
  - а) олти мақом
  - б) олти ярим мақом
  - в) мушқилот
  - г) наво
  - д) "Шашмақом"
2. "Достончилик" санъати кўпроқ қайси воҳага хос?
  - а) Бухоро-Самарқанд
  - б) Фарғона-Тошкент
  - в) Андижон- Наманган
  - г) Бухоро- Қарши
  - д) Сурхондарё-Қашқадарё
3. Достон ижрочиларини ким деб атаимиз?
  - а) хофиз
  - б) бахши
  - в) созанда
  - г) ижрочи
  - д) хонанда

#### 3-гуруҳ учун



1. “Шарқ тароналари” халқаро фестивали каерда ўтказилади?
  - а) Тошкент шаҳрида
  - б) Самарқанд шаҳрида
  - в) Андижонда
  - г) Хоразмда
  - д) Бухоро шаҳрида
2. Эрон касбий мусикасининг асосий жанри нима деб аталади ва у неча туркумдан иборат?
  - а) “мақом” деб номланади, 6 туркумдан иборат
  - б) “дастгоҳ” деб номланади, 7 туркумдан иборат
  - в) “наво” деб номланади, 5 туркумдан иборат
  - г) “тарона” деб номланади, 3 туркумдан иборат
  - д) “мақом” деб номланади, 7 туркумдан иборат

3. Араб халқининг миллий чолғу асбоби қайси қаторда тўғри кўрсатилган?
  - а) скрипка
  - б) ал-уд
  - в) танбала
  - г) дутор
  - д) доира.

Ҳар бир гуруҳларга “Ортиқча сўзни топинг” карточкаси берилади. 5-дақиқа ичида гуруҳлар ўзаро муҳокама қилиб, биттадан ўқувчи чиқиб, ортиқча сўзни изоҳлаб беради.

#### 1-гуруҳ учун

1. М. Бурхонов, П. Мўмин
- М. Ашрафий, С. Бобоёв.
2. Форте, пиано, диэз, крешендо.

#### 2-гуруҳ учун


1. Диэз, бекар, форте, дубл диэз.
2. До, си, фа, секунда, ми.

#### 3-гуруҳ учун

1. Прима, крешендо, терция, секунда.
2. Тарелка, летавра, терция, барабан.

**Жамоа бўлиб қуилаш:** Ҳар бир гуруҳга қушиқ сўзлари ёзилган ва кесиб тайёрланган конвертлар тарқатилади. Ўқувчилар қушиқ сўзларини мозайка тарзида йиғиб олишади. Ҳар бир гуруҳ хор бўлиб, А. Мансуров мусикаси “Ўзбекистон-она, онажон!” Гулнора Қўчқорова мусикаси “Ўзбегимдан айланай” Хуршида Ҳасанова мусикаси “Ўзбекистон-жаннат” қушиқларини қуйлашади. Ўқувчиларнинг фаоллигига қараб, барча гуруҳ аъзолари баҳоланади.

#### 3. Янги мавзу баёни



**Мусика тинглаш:** Нота ёзувларидан СД диск ёзувларидан фойдаланиб, бирин-кетин ижро қилинган халқ мусикаси парчасидан намуна эшиттириб, ҳар бир гуруҳга тинглашга бериладиган қуйлар ёзилган карточкалар тарқатилади, ўқувчилар тинглаган қуйларнинг ёнига рақамларини ёзиб чиқади.

#### “Чапондозо сувори” халқ мусикаси.

**Ўтилган мавзунинг мустаҳкамлаш.** “Ақлий ҳужум” методидан фойдаланиб, янги мавзу мустаҳкамланади. Ўқитувчи томонидан гуруҳларга савол берилади:

#### Замонавий мусика турлари деганда нимани тушунаси?

Гуруҳлар ўз фикрларини, таклиф этилган ғояларни тезда қозғога ёзиб боришади. Ўқитувчи томонидан гуруҳ фикрлари, ғоялари ўқиб эшиттирилади. “Ақлий ҳужум” методидан фойдаланганда: ғояларни таклиф қилиш жараёнида улар баҳоланмайди; эркин фикрлаш; ғоялар қанчалик кўп бўлса шунчалик яхши; бошқалар фикрини “ушлаб олиб” уларни ривожлантиринг; таклиф этилган ғояларни тезда қозғога ёзиб бориш; янги ғояларни рағбарлантиринг; бошқаларни ғоялари устидан қулишга, танқидий изоҳлашга, киноялар қилишга йўл қўймаг.

**Дарсни якунлаш ва уйга вазифа:** ўқитувчи ўтилган мавзунинг умумлаштириш ва такрорлаш учун синфга умумий савол билан мурожаат қилади.

Замонавий мусиканинг турларини санаб бериш?

Ўқитувчи ўқувчилар берган жавобларни умумлаштиради, уйга вазифа беради (“Эстрада” сўзига кроссворд тузиш) дарсни якунлайди.

6- дарс. 7-синф.

Сана:

#### Мавзу: «Катта ашула»:

**Дарсининг мақсади:** Фарғона-Тошкент услуби бўлган катта ашула ҳақида маълумот бериш.

Ўқувчиларда миллий мумтоз мусикага бўлган меҳр-муҳаббатни ошириш ва миллий мусикамиз билан гурурланиш ҳиссини ўстириш.

**Дарс методи:** Аралаш.

Дарсининг жиҳози: дарслик, чолғу асбоби, АВК, ДВД, кўргазмалар, воситалар, тарқатма материаллар.

Фанлар аро боғлиқлик: адабиёт, тарих, миллий ғоя.

**Дарсининг бориши:** Дарсни ташкил қилиш - 3 минут

Уй вазифасини сўраш - 10 минут

Янги мавзу баёни - 20 минут

Мустаҳкамлаш - 5 минут

Уй вазифаси бериш - 2-минут

Рағбарлантириш - 5 минут

Уй вазифасини сўраш: Халқ ашулалари ҳақида.

1. Ашула нима?
2. Ашуланинг турларини биласизми?
3. Ашула қачон ва каерда шаклланган?
4. Ашулани кимлар ижро этишган?
5. Қайси машҳур ҳофизларни биласиз?
6. Ашулага асосан қайси чолғулар жўр бўлади?



# Блиц ўйини: Кимлар ҳофиз бўла олади?

Ҳофизларга хос сифатлар	Тўғри жавоб	Тартиб рақами.
Кучли овоз		1
Мумтоз шеърятга қизиқиш		2
Мумтоз мусикага мухаббат		3
Катта санъаткорлик тажрибаси		4
Юксак малака ва маҳорат		5
Устозлардан таълим олиш		6
Мусиқий саводхонлик		7
Чолғу асбобида чалиш		8

Янги мавзу баёни: Катта ашула.

Катта ашула Фарғона водийсининг маҳаллий услубига хос вокал жанрларидан биридир. Халқ орасида «патнисаки» ашула деб ҳам юритилади. Катта ашула одатда чолғу асбобларсиз икки- уч хонан-далар томонидан ижро этилади. Катта ашуланинг куй тузилиши ва ижроси мураккаб шаклда бўлганлиги учун малакали моҳир ашула-чилар ижро этадилар. Шу боис уларни халқимиз катта ашулачилар деб аташади. Катта ашула ижро этиш учун ашулачида жуда катта диапазонли, бакуват, чиройли овоз бўлиши керак. Ижрочилик сирларини устозлардан ўрганиш талаб қилинади. Чунки катта ашула кенг қўламдаги оҳанги, усул жиҳатдан эркинлиги, фақат Фарғона воҳасига хослиги билан ажралиб туради. Ижро этилаётган катта ашулачилар навбат билан бирин-кетин ижро этадилар, сўз жумлаларининг якуни эса ҳамнафасликда, биргаликда ижро этилади. Катта ашулачилар қўлларига ликобча ушлаб олади, бу ашула айтишда қулай бўлиши учун хизмат қилади. Машиҳур катта ашулачилар: Ҳамрақул Қори, Матпарво Сатторов, Жўраҳон Султонов, Маъмуржон Узоқов, Одиложон Юсупов қабилардир.

Инсон дунёга келибдики, она алласидан тортиб, то қабргача ҳаёти мусиқа билан боғлиқдир. Бунинг натижасида милотдан 3300 йил олдин Самарқанд вилоятининг Мўминобод қишлоғида суякдан ясалган най топилганлиги Президентимизнинг «Юксак маънавият енгилмас куч» китобида айтиб ўтилган. XIII-XIV асрнинг бошларида буюк соҳибқирон Амир Темур Араб мамлакатларидан юксак малакага эга бўлган мақомчилар ва ашулачиларни олиб келиб ўз саройидаги хонанда ва созандаларга мақом сирларини ўргатишда катта ҳисса қўшганлигини, тарихчи Шарафиддин Али Яздий «Зафарнома» асарида айтиб ўтганлиги бизга маълум.

**Мусиқа тинглаш:** Ҳофизлар ижро этган ашулалардан парчалар тинглаш, мустаҳкамлаш учун, мавзу юзасидан бир неча саволлар берилади.

Ўқувчилар боҳоланади.

Уйга вазифа берилади.

# 7-sinf III-chorak sana

## Мавзу: Мақомлар ҳақида умумий тushuncha. "Shashmaqom"

Texlogik xarita	
<b>Mavzu:</b>	Maqomlar haqida umumiy tushuncha. "Shashmaqom"
<b>Maqsad vazifalar:</b>	<p><b>Maqsad:</b> Maqom tushunchasi haqida bilim berish. O'zbekistonda maqomlarning asosiy turlari.</p> <p><b>Vazifalar:</b> O'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish.</p> <p>Mavzuga oid tarqatilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini baholash.</p>
<b>O'quv jarayonini g</b>	Maqom tushunchasi haqida bilim berish. O'zbekistonda maqomlarning asosiy turlari haqida tushuncha berish. O'quvchilarga "Samoi dugox" Dugox maqomidan namunalar eshittirish
<b>Mazmuni</b>	
<b>O'quv jarayonini amalga oshirish</b>	<p><b>Uslub:</b> Kichik ma'ruza</p> <p><b>Shakl:</b> Suhbat-munozara, kichik guruhlar va jamoada ishlash.</p> <p><b>Vosita:</b> Tarqatma materiallar, audio SD disk yozuvlari, fortepiano cholg'u asbobi, rag'barlantiruvchi kartochkalar.</p> <p><b>Usul:</b> Tayyor yozma materiallar.</p> <p><b>Nazorat:</b> Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish. O'z-o'zini nazorat qilish.</p> <p><b>Baholash:</b> Rag'barlantirish, 5 balli tizim asosida baholash.</p>
<b>Kutiladigan natijalar</b>	<p><b>O'qituvchi:</b> Mavzuni berilgan vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishish. O'quvchilar faolligini oshirish. O'quvchilarda milliy mumtoz musiqamizga qiziqish uyg'otish. Dars jarayonida ko'proq o'quvchini baholashga erishish. Savol-javoblarga qatnashib, mustaqil fikrlashga o'rgatish.</p> <p><b>O'quvchi:</b> Shashmaqom haqida yangi bilimlarni egallaydi, yakka holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi. Nutqi, ovoz pardalari rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi. O'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi. Qisqa vaqt ichida ko'p malumotga ega bo'ladi va baholay oladi.</p>
<b>Kelgusi rejalalar</b>	<p><b>O'qituvchi:</b> Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirib, darsda qo'llash. O'z ustida ishlashi, mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lay olishi, pedagogik mahoratini oshirishi lozim.</p> <p><b>O'quvchi:</b> Mustaqil ishlashni o'rganadi. Fikrini aniq bayon qila oladi. Shu mavzuga asoslanib ommaviy axborot vositalaridan va adabiyotlardan qo'shimcha materiallar topadi, ularni o'rganadi. Fikri va guruh fikrini tahlil qilib, mustaqil fikrlash malakasini hosil qiladi.</p>

## Мавзу: Мақомлар ҳақида умумий тushuncha. Мақом тushunchasi.

**Darsning ta'limiy maqsadi:** Maqom atamasi, o'zbek xalq maqom yo'llari va shashmaqom haqida tushuncha beriladi. O'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatiladi.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O'quvchilarda milliy qadriyatlarimizga, milliy musiqa durdonalariga bo'lgan mehrilarini uyg'otish va estetik his tuyg'ularini shakllantirish.



**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O'quvchilarda milliy musiqa bo'lgan qiziqishlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. Musiqa asarlarining manaviy-estetik mazmunini his qilish qobiliyatlarini shakllantirish.

**Dars metodi:** Kichik ma'ruza Aralash. .Blis.

**Dars jihozi:** 7-sinf musiqa darsligi, yillik ish reja, reja konspekt, fortepiano musiqa cholg'u asbobi, texnik vositalar (Audio SD disk yozuvlari), rag'batlantiruvchi kartochkalar, tarqatma materiallar.

*Darsning blok chizmasi:*

1	<b>Tashkiliy qism:</b> a) salomlashish, b) davomat aniqlanadi, v) o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.	2
2	<b>O'tilgan mavzuni takrorlab mustahkamlash:</b> O'tilgan mavzular test sinovlari, musiqa savodxonligi yuzasidan tuzilgan savollar orqali takrorlanib, mustahkamlanadi.	8
4	<b>Yangi mavzu:</b> 1. Jamoa bo'lib kuylash: "Go'zal xayot" Dilnur she'ri, X.Xasanova musiqasi qo'shig'i 1-kupletini va naqoratini jumalarga bo'lib o'rgatiladi. Sof intonatsiyada kuylashga erishiladi. 2. O'qituvchining tushuntirishi. O'quvchilarga "Shashmaqom" haqida tushuncha berish.	18
5	<b>Tinglash:</b> Nota yozuvlaridan yoki audio CD disk yozuvlaridan foydalanib, "Shashmaqom"lar musiqalaridan namunalar eshittirib suhbat-munozara o'tkaziladi.	10
6	<b>Musika savodi:</b> 2/4 o'lchovidagi tasnif doira usullarini o'rganib, nota daftirga mashq bajarish.	
7	<b>Dars yakuni:</b> Savol-javob orqali mavzuni mustahkamlash. <b>Uyga vazifa:</b> Mavzuni o'qish. Nota daftarga doira usullaridan 3/4 o'lchovida mashq bajarish.	7

**Darsning borishi:** O'quvchilar sinfga "Segoh" kuyi musiqa asarlari ostida kirib kelishadi.

**Tashkiliy qism:** Salomlashib, davomat aniqlanadi, o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

O'tilgan mavzularni takrorlab mustahkamlash uchun aqliy xujumdan foydalanib savollar beriladi.

To'g'ri javob bergan o'quvchilarga rag'batlantiruvchi kartochkalar beriladi.

**Yangi mavzu:** "Maqomlar haqida umumiy tushuncha. Maqom tushunchasi".

**Blits o'yin** texnologiyasidan foydalangan holda mavzuni tushuntiradi.

#### O'tkazish texnologiyasi.

**1-bosqich:** O'qituvchi o'quvchilarga mazkur texnologiya bo'yicha tushuncha berib xar bir o'quvchiga alohida tarqatma materiallar beradi (Materialda mavzuga oid to'g'ri va noto'g'ri maqom yo'llari mavjud) Barcha yakka tartibdagi to'g'ri javoblarni ketma-ketligini belgilashlari lozim.

**2-bosqich:** O'qituvchi o'quvchilarni 3ta gurux



Ochiq savollar berib o'quvchilarning o'zbek milliy cholg'ulari haqidagi bilimlari tekshiriladi: O'zbekistonda maqomlarning nechta turi mavjud?

Ular qanday nomlanadi?

Shashmaqomni cholg'u kuylar bo'limi qanday yuritiladi?

Mushkilot bo'limi necha qismdan iborat, ular qanday nomlanadi?

To'g'ri javob bergan o'quvchilarga rag'batlantiruvchi kartochkalar beriladi.

Shashmaqom turlari haqida gapirib bering.

1. "Buzruk" maqomini ma'nosi qanday?
2. "Rost" maqomini ma'nosi qanday?
3. "Navo" maqomini ma'nosi qanday?
4. "Dugox" maqomini ma'nosi qanday?
5. "Segox" maqomini ma'nosi qanday?
6. "Iroq" maqomini ma'nosi qanday?

**Jamoa bo'lib kuylash:** O'qituvchi xohishiga ko'ra ovoz sozlash mashqlari bajarilib, Xurshida Hasanova musiqasi "O'zbekiston-jannat" qo'shig'i o'qituvchi tomonidan kuylab beriladi va o'quvchilarga jumalarga bo'lib o'rgatiladi. Qo'shiqning sof intonatsiyada kuylanishiga erishiladi.

**Yangi mavzu: Kichik ma'ruza:** Maqom san'ati o'zinig ko'p asrlik tarixiga ega bo'lib, avloddan avlodga "ustoz-shogird" an'anasi orqali meros bo'lib o'tib kelayotgan kasbiy musiqaning namunasidir. Kasbiy musiqaning shakllanishida "saroy madaniyati" muxim o'rin tutgan bo'lib, xalq orasidan yetishib chiqqan istedadli musiqachilar xon saroylarida musiqachi bo'lib xizmat qilganlar. Shu davrdan boshlab kasbiy musiqa rivojlangan. Maqom san'ati bilan



asosan kasbiy musiqachilar maxsus shug'ullanganlar. Maqomlar kasbiy musiqaning eng salmoqli va murakkab qismini tashkil etadi. Maqomlar shakl tuzilishi jixatidan juda salobatli san'at namunasidir. Shu bois o'tmishda yashab ijod etgan ko'pgina mutafakkir olimlar Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Sayfiddin Urmaviy, Qutbiddin Sheroziy, Abduraxmon Jomiy va boshqalar maqomlarga doir ilmiy risolalar yozganlar. Shu tariqa maqom ijrochiligi, ijodkorligi va maqom nazariyasi fani rivojlanib keldi.

“Maqom” atamasi arabchadan olingan bo'lib, “o'rin”, “daraja”, “martaba”, “manzilgox” kabi tushunchalarni ifodalaydi.

Maqom-bu mukammal pardalar uyushmasi va doira usullari mushtarakligida ijod etilgan cholg'u kuy va ashulalar majmuasidir.

O'zbekistonda maqomlarning uch turi mavjud bo'lib, ular quydagicha nomlanadi:

**1. Olti maqom (Shashmaqom yoki Buxoro maqomlari)**

**2. Xorazm maqomlari**


**3. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari**

Shashmaqom XVIII asr o'rtalarida Buxoroda saroy kasbiy musiqachilari va musiqashunos olimlar tomonidan Olti maqomdan iborat turkum tarzida ifoda etilgan.

Shashmaqom oltita mukammal pardalar uyushmasini anglatadi. Maqom cholg'u kuy va aytim (ashula) turkumlari shu mukammal pardalarning ma'lum doira usullari bilan mushtarakligi natijasida yuzaga keladi. Shashmaqomdagi har bir maqom ikki yirik bo'lindan-cholg'u va aytim (ashula) yo'llaridan iborat bo'lib, ularni “ustoz shogird” an'anaviy maktabida tahsil ko'rgan malakali kasbiy cholg'uchi va ashulachi-xofizlargina ijro etadilar. Maqomlar asosan “og'zaki uslub” vositasida avlodidan avlodga o'tib kelgan. Sharq olimlari tomonidan o'ziga xos musiqiy “nota” yozuvi yo'llari ixtiro etilgan bo'lsada, ular amaliyotda keng joriy bo'lmagan.

Maqomlarning besh chiziqli nota tizimi asosida yozib olish ishlari XX asr davomida bir necha bor amalga oshirildi. Taniqli kompozitor va etnograf V.A.Uspenskiy (1879-1949) XX-asrning 20-yillarida Buxoroda maqomchi ustozlar-hofiz Ota Jalol Nosir va tanburchi Ota G'iyos Abdug'aniylar ijrosida salobatli Olti maqom tizimini nota yozuvlariga ilk bor tushiradi. Akademik Yunus Rajabiy (1897-1976) ham Olti maqom tizimini ikki bor -50-yillar va 60-70-yillar davomida nota yozuvlarida bosmadan chiqardi.

Shashmaqom-Olti maqom degani bo'lib, u quyidagi maqomlardan tashkil topadi:



**Dars yakuni:** Testdan foydalanib, mavzu mustahkamlanadi. O'qituvchi test yozilgan kartochkalarni har bir qatordagi o'quvchilarga tarqatadi, o'quvchilar ketma-ket javob berishadi.

1. “Maqom” atamasining ma'nosi qanday?
  - a) “o'rin”, “joy”, “daraja”
  - b) Xorazm maqomlari
  - c) Chang, dutor
2. Maqomlar shakl tuzilishi jixatidan qanday asar?
  - a) Uch ovozli asar
  - b) Xor uchun yozilgan asar
  - c) Saobotli san'at namunasi.
3. Kasbiy musiqaning shakllanishidagi muxim omil
  - a) Nota yo'li
  - b) “Saroy madaniyati”
  - c) Xalq og'zaki ijodi
4. Maqom bu----
  - a) Mukammal pardalar uyushmasi va doira usullari birgalikda ijod etilgan cholg'u kuy va ashulalar turkumi.
  - b) 2-3 yallachi ayollar tomonidan ijro etiladigan asar
  - c) Orkestr uchun yozilgan ko'p ovozli asar.
5. “Shashmaqomni” manosi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
  - a) “O'n ikki maqom”
  - b) “Olti maqom”
  - c) Yetti maqom”
  - d) Yetti maqom”
6. “Shashmaqom” maqomlar ketma-ketligi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
  - a) Tanovor, Katta ashula, Bayot I. Bayot II. Cho'li iroq. Mustahzod
  - b) Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq.

d) Alla, Yalla,

Faol qatnashgan o'quvchilarga rag'barlantiruvchi quvnoq notachalar tarqatiladi. Har bir qatordagi o'quvchilar dars faoliyati davomida olishgan qizil, (5 ball), yashil (4 ball), ko'k (3 ball) notachalar umumlashtirilib, doskada yoziladi va darsda g'olib qator aniqlanadi. Quvnoq notalarni qulga kiritgan o'quvchilar rag'barlantirilib, kundalik daftarlariga baho qo'yiladi.

Uyga vazifa: Mavzuni o'qish. Xurshida Hasanova musiqasi "Go'zal hayot" qo'shig'ini yodlash.

#### ADABIYOTLAR

- 1 Karimov I. "O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida".
- 2 I.A.Karimov, "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" 5-6 b.
- 3 Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.
- 4 Karimov I. A. Istiqlol va ma'naviyat.
- 5 Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.
- 6 Karimov I. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi.
- 7 Milliy istiqlol g'oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: O'zbekiston, 2001.
- 8 Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.
- 9 Karimov I. A. Istiqlol va ma'naviyat.
- 10 Islom Karimov.O'zbekiston buyuk kelajak sari.-Toshkent: O'zbekiston, 1998.-56-bet.
- 11 Semyonov A.A. Sredneaziatskiy traktat o muzike Darvesha Ali (xvii).-T.;Uzdavnashr, 1946.-116.s.
- 12 I. Rajabov "Maqomlar masalasiga doir" T. 1963.y.
- 13 Rajabiy Y. O'zbek xalq musiqasi. 5-jild. 1., 1959-y.
- 14 F. Karomatov "O'zbek cholg'u musiqasi" T.1972.y.
- 15 T. Ye. Solomonova "O'zbek musiqasi tarixi".T.1981.y.
- 16 Akbarov. I "Musika lug'ati". Toshkent "O'qituvchi" 1997

- 17 Fitrat L. «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi» 1.1993
- 18 Ibroximov O. «O'zbek xalqi musiqa ijodi» T.1994y.
- 19 Fayziyev O. va boshqalar. «O'quvchilarda musiqiy nafas tarbiyasini shakllantirish yo'llari» T.1992.
- 20 R.Qodirov «Boshlang'ich maktabda ko'p ovoza kuylash». T.,1997 y.
- 21 O'zbek musiqasi tarixi xrestomatiyasi. Tuzuvchilar: T.Salamonova., R.Abdullayev. Toshkent "O'qituvchi", 1983.
- 22 O'zbek xalq cholg'u musiqasi. Tuzuvchilar: Q. Olinboeva, F. Karomatov . "O'zbekiston davlat nashriyoti". Toshkent , 1955.
- 23 Fayziyev O. "Musika va tarbiya". Istiqlol nashriyoti. Toshkent, 2004.
- 24 Estetik tarbiya asoslari. N.A.Kushaev tahriri ostida. -Toshkent, -O'qituvchi, 1988 yil.
- 25 Хрестоматия по методике музыкального воспитания. -Москва, -1987 йил.
- 26 Musika o'qitish metodikasi. TDPU -2005 yil.
- 27 Sh.Ro'ziev. Xorshunoslik. -Toshkent, -O'qituvchi -1987 yil.
- 28 V.A.Kan-Kalik «Учителю о педагогическом общении».
- 29 Dastur Toshkent-97 yil «Musika tarbiyasi metodikasi».
- 30 O.Xasanbayeva., T. Xasanboyev., X.Xamidov «Pedagogika tarixi».
- 31 Abu Nasr Muhammad Farobiy «Katta musiqa kitobi».
- 32 I.Y. Tursunov., U.N.Nishonaliyev «Pedagogika kursi».
- 33 D.Omonullayev., I.Botirov.Davlat ta'lim standartiga sharh.
- 34 M.A.Nurmatova «Musika o'qitish metodikasi va maktab repertuar» fani bo'yicha ma'ruzalar matni Ur.,2007yil
- 35 D.Omonullayev «Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasidan leksiylar tezislari» T.,1990 yil
- 36 N.G.Dmitriyeva, O.Chernoivanenko «Metodika muzikalnogo vospitaniya v shkole» M.,1990 yil
- 37 Musika o'qitish metodikasi fanidan ma'ruzalar matni. TDPU. 2000 yil.
- 38 Estetik tarbiya asoslari. N.A.Kushaev tahriri ostida. Toshkent,-O'qituvchi - 1987 yil.



## MUNDARIJA

1.Kirish: Mavzuning dolzarbligi:.....	3
2.Annotasiya.....	4-5
<b>I-BOB</b>	
3.Dirijyorlik texnikasi va uning dirijyor uchun ahamiyati.....	6-12
<b>II-BOB</b>	
4.Oddiy sxemalar dirijyorlik texnikasini mukammallashtirish uchun mashqlar.....	13-18
<b>5-sinf (IV-chorak 29 -dars).</b>	
5.Mavzu: "B.A.Моцарт, Ж.Бизе, П.Чайковский, Н.Римский-Корсаков каби дунё тан олган бастакорларнинг опералари".....	18-22
<b>6-sinf III- чорак 23-дars</b>	
6.Mavzu: Замонавий мусиканинг турлари.....	23-26
<b>7-sinf III-chorak</b>	
7.Mavzu: Maqomlar haqida umumiy tushuncha."Shashmaqom".....	27-31
8.Aadabiyotlar ro'yxati.....	32-33
9.Mundarija.....	34